



O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta
Maxsus Ta'lim Vazirligi
Buxoro Davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti
Iqtisodiy ta'lim va turizm kafedrası



Himoyaga ruxsat etildi

Kafedra mudiri _____ i.f.n. S.U.Tojjeva
«_____» _____ 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “O’ZBEKISTONDA TA’LIM : TALAB VA TAKLIF
MUTANOSIBLIGI”**

Bajardi: 5140900 – “Kasbiy ta’lim” (ijtimoiy – iqtisodiy soha)
yo`nalishi kunduzgi bo`lim 4 kurs “E” guruhi talabasi
Narzullayev Akmal

Ilmiy rahbar, o'qituvchi

Dilmonov.Q.B

Himoya sanasi

D.A.K.ning bahosi

«_____» _____ 2012 yil

D.A.K.ning xulosasi

Buxoro - 2012

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta
Maxsus Ta`lim Vazirligi
Buxoro Davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti
Iqtisodiy ta`lim va turizm kafedrası**

Mutaxassislik: 5140900 – “Kasbiy ta`lim” (ijtimoiy – iqtisodiy soha) yo`lanishi

“Tasdiqlayman”

Kafedra mudiri _____

“_____” _____ 2011 й.

Narzullayev Akmalning bitiruv malakaviy ishi

T O P S H I R I Q

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi: “O`zbekistonda ta`lim : talab va taklif mutanosibligi”

1.Universitet bo`yicha buyruq bilan tasdiqlangan_____

2.Tugatilgan ishning talaba tomonidan topshirish muddati_____

3.Tushuntirish xatinig tarkibi_____

4.Bitiruv malakaviy ishiga tegishli savollar ro`yxati:-----

5.Grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning ko`rsatkichi bilan)-----

6.Ilmiy maslahatchilar: Navro`zoda.B.N

7.Ilmiy rahbar: Dilmonov.Q.B

8.Vazifani topshirish sanasi_____

9. Vazifa ijroga qabul qilindi_____

Talaba imzosi_____

Kafedra mudiri imzosi_____

Eslatma: Bu vazifa tugallangan ishga ilova

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I.BOB. Ta'lim inson rivojlanishi asosi sifatida	7
1.1. Ta'limning inson rivojlanishiga ta'siri	7
1.2. Ta'lim va jamiyat taraqqiyoti.....	13
1.3. Ta'lim bo'yicha modellar.....	19
I I. BOB. "O'zbekistonda ta'lim : talab va taklif mutanosibligi" mavzusini o'qitish texnologiyasi.....	26
2.1. "O'zbekistonda ta'lim : talab va taklif mutanosibligi" mavzusini o'qitishning texnologik modeli.....	26
2.2. O'zbekistondagi ta'lim tizimining asosiy turlariga oid sharxlar va ta'limni moliyalash.....	38
2.3. "O'zbekistonda ta'lim : talab va taklif mutanosibligi "mavzusining ko'rgazmali elektron taqdimoti (Power Point Presentation).....	47
Xulosa va tavsiyalar.....	69
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	72

KIRISH

Diplomga ega bo'lish-bu hali tom ma'nodagi ziyoli emas. Ziyoli odam o'z tafakkur saviyasi, pok yuragi, ichki madaniyati bilan mutlaqo bo'lakcha bo'ladi.

Islom Karimov.

Mavzuning dolzarbligi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to’g’risida” gi qonunlarni amalga oshirish, talim tizimi oily o’quv yurti hamda maktab isloxotida belgilangan ulkan vazifalarni bajarish ta’lim tarbiya sifatini yaxshilash pedagogik jarayonni boshqarish va idora qilish, o’quvchilar jamoasi faoliyatini yo’lga qoyish va rahbarlik qilish shu kundagi tarbiya texnologiyasini amalga oshirish ota-onalar va jamoatchilikni tarbiya ishlariga jalb etish va ular bilan yaqin hamkorlik o’rnata olish o’qituvchi oldiga qo’yilgan asosiy vazifalardir. Bu vazifalarni muvoffaqiyatli hal etish o’qituvchi kadrlar tayyorlashning g’oyaviy, siyosiy, professional darajasini yuqori ko’tarishni talab qiladi. Talim tizimi sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog’liq bo’lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutstiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo’yicha mehnat qilish huquqi ro’yobga chiqariladi. Ta’lim to’g’risidagi qonun umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartlari orqali sifatli ta’lim olish, shuningdek ta’lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o’tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi. Ta’lim xizmatlarining iste’molchisi sifatida shaxsga davlat ta’lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko’rish kafolatlanadi. Ta’lim olish jarayonida shaxs davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart. Shaxs ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko’rsatish sohasida faoliyat ko’rsatadi va o’z bilimi va tajribasini o’rgatishda ishtirok etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlar asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi.

- Maktabgacha ta'lim.
- Umumiy o'rta ta'lim.
- O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.
- Oliy ta'lim.
- Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.
- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi bo'lib, ta'lim inson hayotining ajralmas bir bo'lagi va unga o'zining jamiyat hayotida muhim o'rin tutishini anglab yetishida muhim omil sifatida namoyon bo'lishini anglatadi. Ta'lim olish insonning asosiy huquqi sifatida inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, insonning barcha huquq va asosiy erkinliklarini hurmat qilishni mustahkamlash, shuningdek, barcha xalqlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik va do'stlikni mustahkamlashga yordam berishga qaratilgandir .

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish quyidagi vazifalar yechimi bilan bog'liq.

- ✓ Ta'limning inson hayotida tutgan o'rnini belgiash ;
- ✓ Ta'lim tizimining asosiy tushunchalari va atamalarini mohiyatini yoritish ;
- ✓ Ta'limning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini haqida aytib o'tish ;
- ✓ O'zbekistondagi ta'lim tizimining asosiy turlariga oid sharxlari tavsilotini berish;
- ✓ “O'zbekistonda ta'lim : talab va taklif mutanosibligi ” mavzusini o'qitishning texnologik modelini yaratish ;
- ✓ “O'zbekistonda ta'lim : talab va taklif mutanosibligi ”mavzusining ko'rgazmali elektron taqdimoti (Power Point Presentation) dasturi asosida tuzish.

Tadqiqot predmeti – Ta'lim tizimining mohiyati.

Tadqiqot ob'ekti bo'lib, “Ta'lim to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanadi; uning yoritilish darajasi ochib beriladi, izlanishning maqsad va vazifalari shakllantiriladi, olingan natijalarning ahamiyati aniqlab olinadi; asosiy xulosalarining realizastiyasi bo'yicha axborotlar keltiriladi.

Birinchi bob “Ta’lim inson rivojlanishi asosi sifatida” bobining asosiy vazifasi bo'lib, ta'lim tizimining asosiy tushunchalari va atamalarini mohiyatini yoritish; Ta'lim tizimininng inson hayotida tutgan o'rnini belgiash; Ta'lim tizimi bo'yicha modellarni izohlab berish.

**Ikkinchi bob “ O'zbekistonda ta'lim : talab va taklif mutanosibligi ” mavzusini o`qitish texnologiyalari”** deb nomlanib, unda “O'zbekistonda ta'lim : talab va taklif mutanosibligi” mavzusini o`qitishning texnologik modelinig tuzilishi, hamda mazkur mavzuning ko'rgazmali elektron taqdimoti (Power Point Presentation) yoritilgan.

Xulosa qismida ta'lim tiziminig asosiy bosqichlari va talim tizimi sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutilishi yoritilgan hamda ta'lim bilan bog'liq xulosa va tavsiyalar berilgan.

I BOB. TA'LIM INSON RIVOJLANISHI ASOSI SIFATIDA

1.1. TA'LIMNING INSON RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Inson rivojlanishining asosiy maqsadi odamlarning farovonligini ta'minlash, sog'lom va bunyodkorlik hayotidan yetarlicha bahra olish imkoniyatini beradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda ekologik muhitni yaratishdan iborat. Inson rivojlanishi konsepsiyasida ta'lim asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Insoniyat sivilizatsiyasi davomida ta'lim va ilm-fanni yuqori darajada rivojlantirish ijtimoiy, texnik hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim dvigatellari hisoblangan. Statistik ma'lumotlar kambag'allik muayyan darajada ta'lim darajasiga ham bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Bu bir tomondan, kam rivojlangan mamlakatlarning o'z ta'lim sohasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashi uchun moliyaviy resurslarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Ikkinchi tomondan, mamlakatning yuqori darajali ish unumdorligini va pirovardida iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasini ta'minlash imkoniyati ham aynan ta'lim darajasiga bog'liqdir. Aholisi ancha savodli mamlakat ishlab chiqarishni rivojlantirish, ish o'rinlarini tashkil etish borasida nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bunday mamlakatlarda odatda ishsizlik va ishga layoqatli aholining ish izlab boshqa davlatlarga borish darajasi past. O'qimishli odamning ma'lumotsiz odamga qaraganda ish topishi osonroq. Barcha mamlakatlarda ishsizlik darajasi har doim ma'lumoti past yoki yo'q aholi orasida yuqoridir.

Ta'lim aholining salomatlik darajasi va uning kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi, ya'ni inson rivojlanishining yana bir muhim ko'rsatkichi bilan bevosita bog'liqdir. O'qimishli aholi o'z sog'lig'ini asrab-avaylaydi, profilaktika choralarini yaxshi qo'llaydi, asosan sog'lom turmush tarziga rioya qilib hayot kechiradi, kasallikni o'z vaqtida aniqlaydi, o'ziga birinchi yordam ko'rsatadi, malakali tibbiy yordamga murojaat qila oladi. Inson rivojlanishining asosiy parametrlari — ta'lim ko'rsatkichlari va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ulushini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar hajmi taqqoslansa, yuqorida aytilgan gaplar o'z tasdig'ini topadi. Ayrim mamlakatlar darajasida ta'lim ko'rsatkichining ahamiyati yalpi ichki mahsulot yuqori ko'rsatkichiga har doim ham mos kelmasa, mamlakatlar aholi jon boshiga daromad miqdori bo'yicha jamlansa, bunday muvofiqlik o'z-o'zidan oydinlashadi. Ta'lim darajasi ko'rsatkichining oshishiga qarab yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi ham o'sadi.

Ta'limning insonning ma'naviy va aqliy ehtiyojlarini qondirish, qobiliyatini shakllantirishga ta'sirini aniqlashda uning muhim jihatlarini bir-biri bilan bog'liq holda davlat, jamiyat va shaxs nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mezonlari qabul qilingan.

Shaxs darajasida — bu shaxsning o'z iste'dodini to'liq namoyon etish, tabiat in'om etgan aqliy qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatidir. Ayni paytda bu insonga ishda o'zini namoyon etish imkonini beradigan umumiy va kasbiy bilimni egallashdir. O'qimishli kishining ma'naviy olami nisbatan boy, hayoti faqat moddiy farovonlik bilan cheklanib qolmaydi. Ta'lim insonga o'zining ma'naviy ehtiyojlarini amalga oshirish, hayotini to'laqonli va mukammal qilish imkonini beradi.

Davlat darajasida — davlat mamlakat aqliy salohiyatini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lishi darkor. "Iqtisod fanlari"ni keng joriy etishda zarur bilimga ega bo'lish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va uning milliy boyligini to'plashning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Aholining ma'naviy boyligi mamlakatda huquqiy madaniyatni, shuningdek, xalqning ozod, demokratik, huquqiy davlatda yashash va mehnat qilish, o'z huquq va erkinliklarini anglash, ulardan shaxs, davlat hamda jamiyat manfaati yo'lida foydalanish qobiliyatini uzviy hamda oson shakllantiradi.

Biz yuqorida Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanishini, jamiyatning muhim muammolarini hal etishda ham u asosiy o'rin egallashini va ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va gumanitar muammolarni bartaraf etishga mislsiz ta'sir ko'rsatishini takidlab o'tdik.

Barcha mamlakatlar rivojlanishga intiladi. Ammo jahonda qaysi mamlakat yaxshi, qaysi mamlakat kamroq rivojlanganini qanday mezonlar bo'yicha aniqlash mumkin?

"Rivojlanish" va "taraqqiyot", "rivojlanish" va "ijtimoiy adolat", "rivojlanish" va "tenglik", "rivojlanish" va "barqarorlik" tushunchalari o'rtasida qanday uzviylik bor?

Bu savollarning javobi rivojlanishning asosiy maqsadi qanday aniqlanishiga, ya'ni uning maqsadi boylik to'plashmi yoki boshqa — odamlar farovonligini oshirish, har bir inson erkinligi va ijtimoiy himoyalaniishi uchun sharoit yaratish, u ijodiy va samarali mehnat qilishi uchun tegishli sharoit bilan ta'minlash, inson va tabiatning birday mavjud bo'lishi muammolari qanday hal qilinishiga bog'liq. Bu borada BMT Rivojlanish dasturi aynan oxirgi tezisdan inson rivojlanishi konstepstiyasi uchun asos sifatida foydalandi.

Inson rivojlanishi konstepstiyasining boshlanishini insoniyat tarixining boshlang'ich davrlari, ko'plab madaniy va diniy manbalardan topish mumkin. Nafaqat qadimdagi muarrixlar, balki faylasuflar ham (Demokrat, Platon, Arastu, Lukrestiy va boshqalar) ijtimoiy rivojlanish mohiyatini anglashga harakat qilgan. O'rta asrlarda yashab ijod qilgan Didro ana shunday faylasuflar sirasidan. U insonni Er yuzida eng qadrli, madaniyat sohasidagi yutuqlarning yagona bunyodkori, aql sohibi, hamma narsaning ibtidosi va intihosi deb hisoblagan.

Rivojlanish timsoli tenglik va ijtimoiy odillik bilan chambarchas bog'liqdir. Inson rivojlanishi konstepstiyasining asosiy jihatlaridan sanalgan ushbu dastlabki qoidani Sharqning buyuk mutafakkir va faylasuflari ham o'z asarlarida qayd etgan. Buyuk Abu Ali ibn Sino ta'kidlaganidek, "inson aynan boshqalarning ehtiyojini qondirishi tufayli insonligini namoyon etadi va boshqalar ham shu tariqa harakat qiladi. Kimdir ekin ekadi, kimdir non yopadi, yana kimdir tikish qilsa, boshqasi igna yasaydi va shu yo'sinda hamma birbirining ehtiyojini qondiradi". Navoiyning fikricha, inson — yerda yaratilgan eng aziz va mukarram zot. Aynan inson va uning manfaatlari ahamiyatlilik, zarurlik va qadr-qimmatning asosiy mezonidir. Yer yuzida hamma narsa inson uchun yaratilgan. "Yer yuzida yaratilgan barcha narsalar, quyosh, yeru-osmon, tog'lar, tekisliklar, dengiz va daryolar, o'simliklar, hayvonlar, gullar, qushlar, havo, olov, yil fasllari, ya'ni tabiat go'zalliklari, uning bitmas-tuganmas boyliklari insonga xizmat qilish uchun mo'ljallangan". Beruniyning ta'kidlashicha, mamlakat farovonligi undagi ilm-fanning ahvoli, taraqqiy etishiga ham bog'liq. Uning fikricha, insonning eng katta baxti bilimga egaligidir, chunki unga aql berilgan. Baxtni ana shunday tushunishgina jamiyatda tinchlik va hotirjamlikka olib keladi. "Inson haqiqiy rohat-farog'atga yetgani sari unga yetishgabo'lgan intilishi kuchayib borgandagina o'sha farogatni chin dildan his qiladi. Inson ruhi o'zi bilmagan narsani anglaganida ham ana shunday holat ro'y beradi", insonning eng oliy burchi esa boshqalar, ayniqsa, kambag'allarga g'amxo'rlik qilishidir. Inson rivojlanishi konseptsiyasining zamonaviy tushunchasiga iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Amarti Senning "Rivojlanish imkoniyatlarni kengaytirish demakdir" deb nomlangan asarida chop etilgan nazariy ishlanmalari katta ta'sir ko'rsatdi. Bu asarda u rivojlanish jarayonini faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning oshishi sifatida emas, balki inson imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni

sifatida ko'rib chiqdi. A. Sen mazkur jarayonni ko'plab variantlar orasidan eng maqbulini tanlab olish uchun inson erkinligini kengaytirish bilan bog'ladi. A. Sen konstepstiyasi asosida rivojlanishga insonga e'tibor qaratilgan jarayon sifatida ta'rif berildi. Natijada ushbu g'oyalar BMT Rivojlanish dasturi ekspertlari guruhi tomonidan birlashtirilib, ilk bor 1990 yildagi Inson rivojlanishi to'g'risidagi ma'ruzada taqdim etildi. Shundan so'ng har yili shunday ma'ruzalar tayyorlana boshlandi.

Inson rivojlanishi konstepstiyasining asosiy qoidasi odamlar nafaqat iqtisodiy rivojlanish vositasi, balki uning asosiy maqsadi qisoblanishini taqozo etadi. «Inson rivojlanishi — odamlar o'z salohiyatini to'liq rivojlantirib, o'z ehtiyoj va manfaatlariga muvofiq sermahsul ijodiy hayot kechira oladigan atrof-muhitni yaratishdir. Tanlash imkoniyatini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish juda muhim hisoblanadi. Inson rivojlanishining eng asosiy sharti uzoq va sog'lom turmush kechirish, yaxshi xabardor bo'lish, munosib hayot kechirish uchun zarur mablaqqa ega bo'lish, jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatidan iboratdir».

Inson rivojlanishi konstepstiyasi iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy nazariyasiga zid emas. Biroq u iqtisodiy rivojlanishni nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, balki inson rivojlanishiga ham qaratgan holda ularning cheklanganligi va ijtimoiy munosabatlardan muayyan darajada uzilib qolishining oldini oladi. Iqtisodiy o'sish va inson rivojlanishi maktablari o'rtasidagi tafovut shundan iboratki, iqtisodiy o'sish o'z e'tiborini faqat bir narsa, ya'ni daromad olishni kengaytirishga qaratrsa, inson rivojlanishi inson tanlovini — u xox iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki siyosiy tanlov bo'lsin, kengaytirishni o'z ichiga oladi.

Konstepstiya inson rivojlanishiga ikki yoqlama yondashuvni ko'rib chiqadi:

birinchisi — bu salomatlikni mustahkamlab, bilim egallash va kasbiy ko'nikmalarni takomillashtirish orqali inson imkoniyatlarini kengaytirish:

ikkinchisi — bu odamlarning ishlab chiqarish maqsadlari, madaniy, siyosiy faoliyat va dam olish uchun o'zi egallagan qobiliyatdan foydalanish jarayonidir. Shunday qilib, ushbu konstepstiya inson rivojlanishini faqat ishlab chiqarish faoliyati uchun resurslarni shakllantirish va moddiy boylikni ko'paytirishga yo'naltirmagan.

Daromad, inson rivojlanishi konstepstiyasiga ko'ra — garchi juda kam bo'lsada, inson egalik qilishni istaydigan tanlovlardan biri, xolos. Biroq bu inson hayotining

murakkabligi va xilma-xilligini belgilay olmaydi. Bunda salomatlik, ta'lim, yashash muhiti, harakatlar va so'z erkinligi ham muhim o'rin tutadi. Shu bois rivojlanish daromad va boylikni oshirishdan ko'ra ko'proq bo'lishi darkor. Uning maqsadi faqat odamlar bo'lishi kerak. Daromad eng so'nggi maqsad emas, balki iqtisodiyot, ijtimoiy faoliyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa soqalarda odamlar imkoniyatlarini kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Shu tariqa inson rivojlanishining maqsadi odamlarni moddiy farovonlik bilan ta'minlash, sog'lom va bunyodkorlik hayotidan yetarlicha bahra olish imkoniyatini beradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda ekologik muhitni yaratishdan va eng asosiysi esa bilim saviyasini mustahkamlashdan iborat.

Shu bilan birga aholining savodxonlik darajasini, aholining boshlang'ich, o'rta hamda oliy ta'lim bilan qamrab olinishini aks ettiruvchi va shu tariqa mamlakatda ta'lim tizimi ahvolini ifoda etuvchi ta'lim darajasi yuksaltirishdan iboratdir.

Inson rivojlanishi konseptsiyasida ta'lim asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. So'nggi o'n yilda jahon hamjamiyatida ta'limni rivojlantirish borasida ulkan yutuqlarga erishildi. 1970 yilda jahonda odamlarning 36 foizi hatto bazaviy ma'lumotga ega emasdi. Ammo, 2009 yilda aholi sonining ikki baravar o'sishiga qaramay, bunday odamlar soni 26 foizga kamaydi. 1975 yilgacha dunyoda katta yoshli har ikkinchi kishi yozish va o'qishni bilmagan bo'lsa, ayni paytda savodsiz odamlar soni deyarli yarim baravarga qisqardi.

**2010 yilda boshlang'ich maktabga bormaydigan boshlang'ich maktab
yoshidagi bolalar soni (ming kishi)**

O'gil bolalar	Davlat	Qizlar
2294	Pokiston	3834
824	Saudiya Arabistoni	806
740	AQSH	584
624	Gana	597
618	Keniya	607
609	Nigeriya	717
590	Burkino-Faso	681
519	Mali	615
557	Kot Divuar	705
475	Mozambik	614
465	Tanzaniya	518
400	Eron	402
379	Kolumbiya	334
365	Tayland	433
332	Turkiya	548

Shunga qaramay, butun dunyoda ta'lim sohasida hali yechilmagan muammolar ko'p. Yer sharida qariyb 100 million nafar maktab yoshidagi bola maktabga bormaydi, boz ustiga ularning 5/3 qismini qizlar tashkil etadi.

MDH mamlakatlari, jumladan O'zbekistonda ta'lim darajasi ko'rsatkichi juda yuqori. Buning ustiga Hamdo'stlik mamlakatlarining barchasida bu ko'rsatkich kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichidan ham yuqori. O'zbekiston ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida turadi. Respublikada keyingi o'n yil mobaynida ko'plab maktablar, kollejlari, listeylar va ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash evaziga pedagoglar hamda o'quvchilar soni ko'paymoqda, ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasi rivojlantirilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2007 yildan o'rtacha o'qish muddati 12 yilni tashkil etdi. Bu masalan, Ozarbayjon, Armaniston, Turkiya va inson rivojlanishi bo'yicha o'rtacha indeksga ega boshqa qator mamlakatlarga qaraganda ancha ko'pdir.

1.2 TA'LIM VA JAMIYAT TARAQQIYOTI

Insoniyat sivilizastiyasi davomida ta'lim va ilm-fanni yuqori darajada rivojlantirish ijtimoiy, texnik hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositalaridan hisoblangan.

Qadimgi mamlakatlar va sivilizastiyalar erishgan muvaffaqiyatlar butun dunyoga ma'lum. O'sha davrlardagi hukmdorlar ilm-fan, san'at va madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. O'rta asrlarda qadimgi Misr, Xitoy, Yunoniston va Rim tarixi insoniyat rivojlanishida nafaqat buyuk davr, balki bugungi kunda ham o'rnak olsa arziydigan namuna hisoblanadi. Inson rivojlanishining yangi tarixi, chunonchi Yaponiya, Evropa davlatlari, AQSh, Singapur, Tayvan (Xitoy) va boshqa qator mamlakatlarning o'z farovonligi hamda rivojlanishiga ilmiy kashfiyotlar katta ta'sir ko'rsatganidan dalolat beruvchi tajribasidan saboq olsa bo'ladi. Bu yutuqlar jamiyatda ta'lim va ilm-fanga, shuningdek, ular asosida shakllanadigan madaniyat hamda san'atga bo'lgan e'tiborli munosabat natijasidir.

XXI asr arafasida jahon hamjamiyati inson sivilizatsiyasini shakllantirish, mamlakatlar va alohida shaxsni rivojlantirishda ta'limning roli hamda vazifasini tubdan qayta ko'rib chiqib boshladi. Dastlab, ta'limni tubdan isloh qilish ilmiy-texnik inqilobning « ijtimoiy natijalari » dan biri sifatida ko'rib chiqildi. Ammo keyinchalik natija sababga aylandi. Ta'lim iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili hamda sharti, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi bo'ldi. Ta'limni rivojlantirish, uni tubdan qayta o'zgartirishda aniq yo'nalishlar belgilandi.

Birinchisi — bu ta'limni tubdan demokratlashtirish. Ushbu ilg'or yo'nalish yangi sanoatlashgan va ma'lum darajada rivojlanayotgan mamlakatlarni qamrab oldi. Yaxshi rivojlangan davlatlar o'z oldiga tobora rivojlanib borayotgan oliy ta'limning umumiylikka aylantirish masalasini qo'ydi

Ikkinchisi — 60-yillar boshida yuzaga kelgan uzluksiz ta'lim g'oyasi keyinchalik jadal sur'atda rivojlantirildi. Jahon hamjamiyati asta-sekin eski "ta'lim bir umrga" g'oyasini "ta'lim butun umr davomida" g'oyasiga almashtirmoqda. Bu erda gap ta'limning qadr-qimmatini, davlat, ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etish haqida bormoqda. Eng asosiysi, uchinchisi — yangi, chinakamiga istiqbolli prinsip, ya'ni ta'lim

— bu nafaqat mutaxassislarni tayyorlash vositasi, balki jamiyatning umumiy intellektual, texnologik va madaniy darajasini oshirish, innovastiyalar va taraqqiyotga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash, jamiyatda zamonaviy turmush tarzini shakllantirishni jamoatchilik ongiga singdirish, davlat siyosatiga joriy etishdir. Aholisining savodi nisbatan yuqori mamlakat ishlab chiqarishni rivojlantirish, ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha ko'proq imkoniyatga ega. Bunday mamlakatlarda odatda ishsizlik va ishga layoqatli aholining ish izlab boshqa davlatlarga borish darajasi past.

Yuqori ma'lumotli odamlar, kasbiy mahoratini muntazam oshirish, eng murakkab texnologiyalarni o'zlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan xodimlarga ega mamlakat transmilliy korporastiyalar e'tiborini doim o'ziga jalb qiladi. Bu, ayniqsa, ilm talab buyumlar ishlab chiqarish va yuqori texnologiyali xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan kompaniyalarning investitsiya siyosati haqida gap borganda juda seziladi. Odatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga oqib keladi va bu erda yangi, ko'p haq to'lanadigan ish o'rinlarini tashkil etadi.

Ma'lumoti yuqori odamning ma'lumotsiz kishiga qaraganda ish topishi osonroq. Har qanday mamlakatda ishsizlik darajasi har doim ma'lumotsiz aholisi orasida yuqori.

Shu sababli ta'limni rivojlantirish, undan har bir fuqaroning foydalanishini kengaytirish ishsizlikka qarshi kurash bo'yicha davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylanishi shart.

Ta'lim sohasidagi islohotlar, shuningdek, ilmiy-texnika taraqqiyoti sur'ati va yo'nalishi dunyoning turli mamlakatlari hamda mintaqalariga bir xil ta'sir ko'rsatgani yo'q. Natijada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida tafovut yanada kuchaydi. Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limning umumiy va uzluksiz ta'lim amalga oshirilgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa hanuzgacha umumiy savodxonlik xususidagi masala hal etilganicha yo'q. Ta'limdan foydalanish borasidagi tengsizlik global taraqqiyot va har bir mamlakat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qashshoq mamlakatlarning hamma narsadan mahrum aholisining bilim olishi uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag' ulushi aholi umumiy soni hisobga olinadigan bo'lsa, yuqorida qayd etilgan aholi ulushidan ancha kam. Buning sababi kam ta'minlangan oilalardan chiqqan kishilar ko'pincha o'rta, ayniqsa oliy ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatidan mahrumligicha

qolmoqda. Qator qashshoq davlatlarda pulli ta'limning joriy etilishi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Chunki kam ta'minlangan oilalar o'z farzandlarining bilim olishi uchun pul to'lay olmaydi. Yetim va qarovsiz bolalar ham shunday ahvolda. Dunyoning kam rivojlangan ko'plab mamlakatlarida ularning soni nihoyatda ko'p. Bundan tashqari, bilim olishdan keng foydalanish mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni, shuningdek, bir mamlakat miqyosida odamlar o'rtasidagi tengsizlikni ham bartaraf etishi mumkin

Ta'lim aholining salomatlik darajasi ko'rsatkichi va uning kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi, ya'ni inson rivojlanishining yana bir ko'rsatkichi bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekistondagi inson taraqqiyoti to'g'risidagi 2010 yilgi ma'ruzada "yaxshi ta'lim olgan aholi o'z salomatligiga nisbatan yaxshiroq yondashadi, profilaktika choralarini vaqtida qo'llaydi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yadi, vaqtida kasallikni aniqlashga, o'ziga-o'zi birinchi yordam ko'rsatishga, sifatli tibbiy yordam olishga qodir bo'ladi", deb ta'kidlangan. Salomatlik darajasi yuqori bo'lgan aholining ish sharoiti ham, daromadi ham yaxshi bo'ladi.


1.2.1-jadval

Dunyoning qator mamlakatlarida katta yoshli aholining savodxonlik darajasi (18 va

Erkaklar

undan katta yosh), 2011 yil (%)

Xotin -qizlar




Dunyoning qator mamlakatlarida 16-25 yoshli aholining savodxonlik

Erkaklar

darajasi, 2011 yil, (%)

Xotin -qizlar



Manba :BMT ma'lumoti

Shu bilan birga tarixdan ma'lumki, ta'limning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir darajasi uchta asosiy omilga bog'liqdir.


Birinchi omil — bu hukumatning ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan manfaatdorligi, siyosiy irodasi va qobiliyati. Qayd etilgan jihatlarning har biri ta'limni rivojlantirishda hal qiluvchi o'ringa ega va buni ushbu sohani rivojlantirishda hukumatning roli deb atash mumkin. Ya'ni, agar bularning bittasi amalga oshmasa ham ta'limni rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Hukumatning ta'lim sohasidagi islohotlar amalga oshirilishini va aholining bilim olishdan keng foydalanishini ta'minlash salohiyati hukumat a'zolarining bilim saviyasi hamda davlatning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq.

Ikkinchi omil — bu ta'limdan aholi keng qatlamining foydalanish darajasi. Qadimgi sivilizatsiya mamlakatlari, shuningdek, Uyg'onish davri va ilk o'rta asrda Evropa hamda Markaziy Osiyo davlatlarida yangi era boshlanguncha ilm fan va madaniyatning yuksalishi o'zining muayyan cheklanishiga ega bo'lgan. Buning sababi

jamiyatning tor doiradagi, elita qismi yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgani tufayli taraqqiyot ham unga asoslanganidadir. Natijada o'sha davrning buyuk odamlarining kashfiyotlariga talab bo'lmadi. Negaki, jamiyat bu kashfiyotlarni qabul qilish va hayotga tatbiq etishga tayyor emasdi.

1.2.3-jadval

Matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sohasida eng yuqori ko'rsatkichlarga ega elita maktab tizimi 2010-yil



Manba: L. Grebnev. Obrazovanie: uslugu ili jizn Voprosi ekonomiki, № 3

Uchinchi omil — bu ta'lim sifati va uni inson faoliyati natijalariga aylantirish qobiliyati. Aholi savodxonligining yuqori darajasi aholi bilim darajasining muhim mezon hisoblanadi. Biroq, bu yagona mezon emas. Aholining ta'limdan foydalanishi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega ko'plab mamlakatlar jamiyatni innovastion rivojlantirish borasida bunday ko'rsatkichlarga erisholmagan. Bu holat uning xususiyatlarini aniqlab beruvchi ko'plab omillarni o'z ichiga olgan bo'lib, turli sabablar bilan izohlanadi. Bu yerda ushbu omillarning, bizningcha, asosiylari hisoblangan ikkitasini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

- talabchanlik va tabiiy hamda muhandislik fanlari sohasidagi bilim darajasini oshirish;
- bilimni inson faoliyatining barcha jabhalariga tez o'zgartirishga qodir institutlarni tashkil etish.

Respublika byudjetidan ta'lim uchun ajratilayotgan mablag'lar ulushi 50 foizdan ortiqni tashkil etayotganini ham aynan ta'limning roli katta ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, ta'lim sohasiga mablag' sarflash muayyan sub'ektiv sabablar tufayli kutilgan iqtisodiy natijalarga olib kelmasligi mumkin. Quyidagilar shunday sabablar sirasiga kiradi

■ mamlakatni rivojlantirishning no to'g'ri tanlangan strategiyasi, hukumat iqtisodiy siyosatidagi jiddiy xatoliklar. Masalan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va xizmatlar tegishli ravishda qo'llab-quvvatlanmaganda, qazib olish sanoati, yuqori likvidli xomashyoni eksport qilish bilan bog'liq tarmoqlarni rivojlantirishni jadallashtirish. Bu holat milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli manfaatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ishlab chiqarilmaydigan xomashyo uchun jahonda narxlar konyukturasi yomonlashganda iqtisodiy o'sish qayta ishlash sanoati va yuqori texnologiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanmagani bois to'xtashi yoki keskin pasayishi ehtimoldan holi emas. Ta'lim tizimi esa bu vaqtda xomashyo sohasida mehnat qiladigan mutaxassislar sonini ko'paytirishi mumkin. Natijada mamlakat aholi bilim darajasining o'sishi iqtisodiyot sohasi bilan bir xil rivojlanmaydi;

■ malakali kadrlarning chetga ketib qolishi. Mamlakatda ilm talab, yuqori texnologiyali tarmoqlarning yetarlicha rivojlanmagani, moliyalashning kamayishi, moddiy rag'batlar va innovatsiya faoliyati mexanizmlarining yo'qligi malakali mutaxassislar hamda olimlarning ketib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatda mutaxassislarni tayyorlash uchun sarflangan katta miqdordagi mablag'lar xodimlarga ilmiy, innovatsiya va ishlab chiqarish faoliyati uchun qulay sharoitlar taklif etishga qodir boshqa mamlakatlar tomonidan o'zlashtiriladi;

■ ta'lim jarayonining ish beruvchilar talab va ehtiyojlariga mos kelmasligi. Buning natijasida o'quv yurtlari bitiruvchilari o'qish jarayonida egallagan bilimni amalda qo'llashni bilmaydi, ilg'or xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtira olmaydi;

■ ta'lim muassasalari ishi sifatining pastligi, ularda pora xo'rlikning avj olishi va buning natijasida mutaxassislarni tayyorlash sifatining pasayishi va bitiruvchilarning o'z kasbini yaxshi bilmasligiga olib keladi. Qayd etilgan ushbu jihatlarni bartaraf etish hozirgi dunyoda o'zining raqobatbardoshligini saqlashga intiladigan har qanday mamlakatda iqtisodiy va ta'lim sohasidagi islohotlarning muhim qismiga aylanishi lozim.

1.3 TA'LIM BO'YICHA MODELLAR

O'z xalqining moddiy, aqliy va ma'naviy boyligini oshirishga intilayotgan har qanday davlat o'z mamlakati milliy modelida ushbu vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini joriy qiladi.

Ta'lim modellari. Ta'limning ko'plab milliy modellari bor. Biroq ular orasidan tuzilishi jihatidan quyidagi asosiy mezonlarga qarab bir biridan farq qiladigan asosiylarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- aniq tarixiy davrda ushbu mamlakat uchun ta'lim tizimini rivojlantirishdan asosiy maqsad va kutiladigan natija;

- ta'lim tizimini moliyalashda davlat va jamiyatning iqtisodiy imkoniyatlari;

Hozirda rivojlangan va jadal sur'atda rivojlanayotgan mamlakatlarda muayyan darajadagi farq bilan foydalanilayotgan ta'limning uchta asosiy modelini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular Yevropa, Amerika va Osiyo modelidir.

Yevropa ta'lim modeli boshlang'ich maktabdan boshlab, o'quvchilarga yuqori talablarni qo'yish va ularga puxta bilim, jumladan tabiiy va muhandislik fanlari sohasida chuqur bilim berishga qaratilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi ham mavjud. Boshlang'ich va o'rta maktabda o'qish jami 10-12 yil davom etadi va umumiy hisoblanadi. Keyingi bosqich kasb-hunar, oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limdir. Bu modelda barcha darajada bilim olish markazlashtirilgan bo'lib, asosan davlat hisobidan bepul o'qitiladi. Ushbu modelda o'quvchilar bilimini boshlang'ich maktabdan boshlab baholash mezonlari yuqori hisoblanadi va o'quvchilar ushbu mezonlar asosida sinfdan sinfga ko'chiriladi.

Yevropada universitetlar avtonomiyasi chuqur tarixiy ildizga ega bo'lsa-da, Amerikadagiga qaraganda ularning mustaqilligi nisbatan kamroq. O'quv yurtlarini boshqarishda akademik doiralarning roli katta, AQShda esa bu vazifa ko'proq homiylik kengashlari zimmasiga yuklangan. Yevropa modeli doirasida ingliz, fransuz va nemis ta'lim modeli, shuningdek, Sharqiy Yevropa mamlakatlari ta'lim modeli alohida ajralib turadi.

Yevropa ta'lim tizimi keng ko'lamli o'qitish tizimi va ishchi mutaxassisliklarga, jumladan mehnat va aholi bandligi organlari tomonidan bepul asosda Qayta o'qitish

tizimini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari asosan ish beruvchilar yoki o'qiydiganlar tomonidan talab etiladigan va haq to'lanadigan kadrlar malakasini oshirish bo'yicha juda keng qamrovli tizim ham mavjud.

Osiyo ta'lim modeli ta'limni moliyalashda davlatdan tashqari xususiy biznes ham muhim rol o'ynashi bilan ajralib turadi. Bu erda maktablar munistipal organlar tasarrufida, xususiy va davlat oliy o'quv yurtlari son jihatidan taxminan teng. Umuman olganda ta'limni moliyalashda mahalliy manbalar milliy manbalarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi. Boshlang'ich va o'rta ta'lim asosan bepul, oliy ta'lim esa pullidir. Bunda talabalarga grantlar va kreditlar xisobidan ta'lim xizmatlari uchun pul to'lash bo'yicha yordam beradigan ko'p tarmoqli tizim mavjud.

Amerika tizimida davlat va xususiy maktablar, eng yaxshi va o'rtacha universitetlarda ta'lim sifati keskin farq qiladi. Boshlang'ich maktablarda o'quvchilarning bilim darajasiga nisbatan soddalashtirilgan talablar ularning bilim olishiga qarab ortib boradi. Boshlang'ich maktablarda ko'proq turli ijtimoiy fanlar o'qitilsa, o'rta maktablarda o'qishni ixtisoslashtirish uchun keng imkoniyat yaratilgan.

Osiyo ta'lim modeliga Yevropa va Amerika modelidan farqli o'laroq quyidagilar xosdir:

- boshlang'ich maktabning katta ahamiyatga ega ekanligi (ushbu aksariyat mamlakatlar, jumladan Yaponiya va Janubiy Koreyada boshlang'ich maktabda o'qish 4 yil emas, balki 6 yil davom etadi);

- maktab ta'limi dasturlarida o'quvchilarda uyg'unlik hissi, yuksak odob-axloq qoidalarini shakllantirishni ta'minlaydigan ma'naviy-axloqiy fanlarga alohida o'rin berilgani (musiqa, tasviriy va amaliy san'at, etika, estetika);

- o'quvchilarga faqat akademik bilim berish emas, balki ularda ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilgani (Singapurda boshlang'ich maktab bitiruvchilari ega bo'lishi lozim bo'lgan elita afzalliklardan biri "fikrlash va o'z fikrini ifoda etish" va "atrofdagi narsalarga qiziqish bildirish" qobiliyati xisoblanadi);

- ta'lim tizimining jamiyatning turli qatlamlari uchun ochiqligi (Janubiy Koreyada 25-37 yoshdagi fuqarolarning 97 foizi shu tufayli oliy ma'lumotga ega va bu butun dunyoda eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi);

- xorijiy tillar, avvalambor, ingliz tilini o'rganishga alohida e'tibor berilayotgani

■ iqtidorli talabalarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va eng yaxshi xorijiy oliy o'quv yurtlariga yuborish bo'yicha maxsus dasturning mavjudligi

Nufuzli xalqaro tashkilotlar va ekspertlarning fikricha, Osiyo ta'lim modeli Yevropa modeliga qaraganda ancha mukammal. Jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Tayvan (Xitoy) dunyoda eng yaxshi milliy ta'lim tizimiga ega ko'plab mamlakatlar orasida (Finlyandiya va Kanada bilan bir qatorda) peshqadamlik qilmoqda. Mintaqaning ushbu to'rt mamlakati aynan Osiyo ta'lim modeli tufayli dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo'shilgani ham bu model samaradorligining yana bir tasdig'idir. Dunyoda iqtisodiy, ilmiy va madaniy integrastiyalashuvni chuqurlashtirish hamma mamlakatlarni inson faoliyatining barcha jabhalariga tub o'zgarishlar kiritayotgan shiddatli globallashtirish jarayoniga jalb qilmoqda. Dunyoda «oliy ta'limni baynalmilallashtirish» deb nomlangan tushunchaning paydo bo'lishi bunday ta'sirga yorqin misol bo'la oladi. Bu borada dunyoning har bir mamlakatida qabul qilinayotgan ta'limning xalqaro bazaviy modeli haqida so'z bormoqda.

O'zbekistonda tub o'zgarishlar strategiyasi, nafaqat mahalliy qadriyatlar, tajriba va an'analar, balki ilg'or xorij tajribasidan foydalanishga asoslangan. O'zbekiston milliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida yuqorida qayd etilgan uchta ta'lim modeli, avvalambor, Osiyo ta'lim modelining elementlari muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan boshqa mamlakatlar yutuqlarini hisobga olish va ijodiy foydalanishga intilmoqda.

Bu jadvalga muvofiq ayrim mamlakatlar nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, AQSh boshqa mamlakatlar orasida peshqadamlik qilmoqda. Yer sharidagi 500 eng yaxshi oliy o'quv yurtining har uchinchisi uning hududida joylashgan. Ro'yxatdagi ikkinchi o'rinni aholisi dunyo aholisining 1 (%) foizdan kam qismini tashkil etadigan Buyuk Britaniya band etgan. Yer sharidagi eng yaxshi universitetlarning ko'pchiligi ushbu mamlakatga tegishli. Yevropa qit'asida bunday oliy o'quv yurtlari bo'yicha Evropa Ittifoqining aholisi va iqtisodiy qudrati bo'yicha uchta yirik davlati, Osiyo qit'asida Yaponiya ustunlik qilmoqda. Shunday bo'lsada, resurs salohiyati va iqtisodiyotini jadal rivojlantirayotgan Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoy kabi qudratli davlatlar egallagan pozitsiya, shuningdek, ro'yxatda keltirilgan mamlakatlarda aholisi va iqtisodiy salohiyati bo'yicha yirik hisoblangan Ukraina, Turkiya, Tailand, Indoneziya qayd etilmagani ham e'tiborni o'ziga jalb qiladi.

Oliy o'quv yurtlari jahonning eng yaxshi 500 universiteti

Ro'yxatidan joy olgan mamlakatlar.

Dunyoning eng yaxshi 500 oliy o'quv yurti ro'yxatida qayd etilgan mamlakatlar sonining ko'pligi qariyb qirqta bo'lishidan qaramay, ular orasida kam sonli mamlakatlar mustahkam o'rin egallab turibdi. Bu erda AQSh shubhasiz peshqadam. 2- jadval ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzidagi eng yaxshi 10 ta oliy o'quv yurtining 8, 20 tasidan 17, 50tasidan 37, 100 tasidan 52 tasi ushbu mamlakatning ulushiga to'g'ri keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, dunyoning 10 ta eng yaxshi universiteti toifasida AQSh ulushiga 8 oliy o'quv yurti, Buyuk Britaniya ulushiga 2 oliy o'quv yurti to'g'ri keladi.

1.3.1-jadval

Jahonning ta'lim rivojlangan mamlakatlari.

	Jahonning eng yaxshi 100 ta oliy o'quv yurti o'rtasidagi eng yaxshi oliy o'quv yurtlari reytingi	Mamlakatning eng yaxshi oliy o'quv yurtlarining jahon birinchiligidagi miqdori			
		Eng yaxshi 10 ta oliy o'quv yurti o'rtasi davlat	Eng yaxshi 20 ta oliy o'quv yurti o'rtasi davlat	Eng yaxshi 50 ta oliy o'quv yurti o'rtasi davlat	Eng yaxshi 100 ta oliy o'quv yurti o'rtasi davlat
AQSh	1	8	17	37	52
Buyuk Britaniya	2	2	2	5	11
Yaponiya	19	-	1	2	6
Kanada	24	-	-	2	4
Shveytariya	27	-	-	1	4
Gollandiya	40	-	-	1	2
Franziya	45	-	-	1	4
Shvetsiya	48	-	-	1	4
Germaniya	51	-	-	-	5
Avstraliya	54	-	-	-	2
Daniya	56	-	-	-	1
Isroil	60	-	-	-	1
Norvegiya	68	-	-	-	1
Rossiya	70	-	-	-	1
Finlyandiya	74	-	-	-	1
Italiya	100	-	-	-	1

Manba: V.Skott. Inson rivojlanishi statistika kuzgusida. BMT

O'zbekistonda tub o'zgarishlar strategiyasi, nafaqat mahalliy qadriyatlar, tajriba va an'analar, balki ilg'or xorij tajribasidan foydalanishga asoslangan. O'zbekiston milliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida yuqorida qayd etilgan uchta ta'lim modeli, avvalambor, Osiyo ta'lim modelining elementlari muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan boshqa mamlakatlar yutuqlarini hisobga olish va ijodiy foydalanishga intilmoqda.

“O'zbekistonda ta'lim sohasida erishilayotgan yutuqlar havas qilishga arziydi”

Toshkent shahrida 16-17 fevral kunlari “ Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizastiyalashning muhim sharti ” mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Mazkur nufuzli anjumanda o'nlab mamlakatlardan yuzlab mutaxassislar va ekspertlar ishtirok etdi. “Xalq so'zi” muxbirlari ularning ayrimlari bilan suhbatlashdi.

Parviz MORVIDJ, Nyu-York davlat universiteti professori (AQSh):

O'zbekistonda Prezident Islom Karimov tomonidan olib borilayotgan tinchlikparvar siyosat, har tomonlama mukammal asosda ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilgan taraqqiyotning «o'zbek modeli» butun dunyoda hali-hanuz kuzatilayotgan iqtisodiy bo'hron davrida ham rivojlanish sur'atlarini muttasil oshirib borishga zamin yaratmoqda. Qariyb chorak asrdiki, ta'lim sohasida faoliyat yuritib kelaman. Sharq xalqlari, ayniqsa, o'zbek millatining ko'hna tarixi hamda madaniyatiga juda qiziqaman. Moziy va hozirgi kunni solishtirib komil ishonch bilan aytishim mumkinki, mustaqil O'zbekistonning bugungi yoshlari Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahon tamadduniga munosib hissa qo'shgan ulug' ajdodlariga munosib avlod bo'lib kamol topmoqda.

Xartmann LIBETRUT, Vuppertal universiteti professori (Germaniya):

Mustaqil O'zbekistonning qisqa vaqt ichida erishgan yutuq va marralari, jumladan, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyoti, barqaror o'sish sur'atlari, aholi turmush farovonligining yildan-yilga oshib borayotgani, o'ylaymanki, bugun ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Bu xalqaro miqyoda yuksak darajada e'tirof etilayotgani O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lining amaliy ifodasidir. O'quv muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ular faoliyatiga axborot-kommunikastiya texnologiyalarini keng joriy etish, o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlash kabi amalda juda katta xarajatni talab qiladigan yumushlarga har yili davlat byudjetidan yetarli miqdorda mablag'lar

ajratilmoqda. O'zbekiston to'g'ri o'ylangan shu yo'l orqali o'z kelajagi uchun mustahkam poydevor qo'yimoqda. Bu omil mamlakatning yaqin yillar ichida eng rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Tetsudji TANAKA, Markaziy Osiyo va Kavkazni o'rganish instituti direktori (Yaponiya):

Bilasiz, juda ko'p davlatlarda ota-onalar o'g'il-qizlari ta'lim-tarbiyasi uchun oila byudjetidan juda katta miqdorda mablag' sarflashadi. Lekin ularning hammasida ham imkoniyat bir xilda emas. Ya'ni, kimningdir bunga qurbi etadi, kimnikidir esa yo'q. Natijada ushbu jihat o'z-o'zidan savodxonlik darajasiga ta'sir o'tkazadi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha umumiy savodxonlik darajasi 30-40 foizni tashkil etadi, atigi 30 ga yaqin mamlakatda esa bu ko'rsatkich 90 foizdan ortiq. O'zbekistonda aholining savodxonlik ko'rsatkichi qariyb 100 foizga teng ekan. Anglashiladiki, mamlakatda ta'lim tizimi izchil yo'lga qo'yilgan. Yaqinda Prezident Islom Karimovning 2011 yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzasi bilan tanishib, bunga yana bir karra amin bo'ldim. E'tibor bering: eng zamonaviy o'quv laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan, 46 ming 300 dan ortiq o'quvchiga mo'ljallangan 166 ta yangi maktab qurilibdi va rekonstruktsiya qilinibdi. Shuningdek, 852 ta maktabda zamonaviy o'quv kompyuter sinflari tashkil etilibdi. Bu katta kuch va mablag' talab qiladigan yumush. Umuman, O'zbekistonning ta'lim-tarbiya tizimiga oid bizni qiziqtirgan jihatlar juda ko'p. O'ylaymanki, xalqaro konferensiya davomida bu haqda to'liq ma'lumotga ega bo'lamiz.

Valeriy NIKIFOROV, Boltiq xalqaro akademiyasi boshqaruvi raisi (Latviya):

Yurtingiz qadimda Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashgan davlat sifatida barchaga ma'lum va mashhur bo'lgan. Istiqlool yillarida O'zbekiston ushbu maqomini qayta tikladi. Bugungi kunda mamlakat yoshlarining matematika, kimyo, biologiya, fizika kabi fanlar bo'yicha o'tkazilayotgan xalqaro olimpiadalar, musiqa festivallari, sport musobaqalarida qator yutuqlarga erishib kelayotgani e'tiborlidir.

Yana shuni ta'kidlash joizki, Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan kommunikatsiya va transport tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan milliy strategiya asosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayonki, mazkur dastur temir yo'l, havo yo'llari, logistika kabi mamlakat rivojida asosiy o'rin tutadigan

yo'nalishlarda yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ham o'z ichiga olgan. U muvaffaqiyatli ishlab kelmoqda. Hozir o'zbekistonlik yoshlar «Talgo», «Boing», «Eyrbas» kabi ilg'or texnika vositalarini boshqarmoqda, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, Angren logistika markazi ravnaqiga hissa qo'shmoqda, zamonaviy talablarga to'la javob beradigan avtomobillar va ularning murakkab ehtiyot qismlarini yuqori sifatda tayyorlashda ishtirok etmoqda. Bular ta'lim jabhasida olib borilayotgan islohotlar asosi mustahkam va puxta ekanligini yaqqol namoyon etib turibdi.

Yu MI XA, Sangshin tibbiy ta'lim jamg'armasi prezidenti (Janubiy Koreya):

Avvalambor, mana shunday betakror tabiati, mehmondo'st xalqi, yuksak iqtisodiy-ijtimoiy yutuqlari bilan dunyoga tanilgan diyorda mehmon bo'lib turganimdan juda xursandman. Ko'tarinki kayfiyat bilan mehmonxonaga joylashdik. Barcha turdagi zamonaviy servis xizmatidan bahramandmiz. Bularning bari ishtirokchilarning xalqaro konferenstiyaga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rishlari va unda munosib ishtirok etishlari uchun ayni muddaodir. Mazkur yirik hamda nufuzli tadbir o'zaro tajriba almashish, hamkorlikni rivojlantirish, eng muhimi, mamlakatingiz ta'lim modelini yaqindan o'rganish imkoniyatini berishi bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Yurtingizda davlatingiz rahbari rahnamoligida ushbu sohaga "Ta'lim-tarbiyaga e'tibor — kelajakka e'tibor" tamoyili asosida alohida yondashilmoqda. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlangani bunga bir misoldir.

- Manba Xalqaro simpozium

II BOB. “O’ZBEKISTONDA TA’LIM : TALAB VA TAKLIF MUTANOSIBLIGI” MAVZUSINI O’QITISH TEXNOLOGIYALARI

2.1 “O’ZBEKISTONDA TA’LIM : TALAB VA TAKLIF MUTANOSIBLIGI” MAVZUSINI O’QITISHBIBG TEXNOLOGIK MODEL

2.1.1 “ O’zbekistonda ta’lim : talab va taklif mutanosibligi ” mavzusini o’qitishning texnologik modeli

Ma’ruza vaqti- 2 soat	Talabalarning soni: 20 – 80 gacha
Ma’ruza shakli	Kirish-axborot ma’ruza - korgazmali
Ma’ruza rejasi	1 Ta’limning inson rivojlanishiga ta’siri 2 Ta’lim va jamiyat taraqqiyoti 3 Ta’lim bo’yicha modellar 4 O’zbekistonda ta’lim : talab va taklif mutanosibligi mavzusini o’qitishning texnologik modeli. 5 O’zbekistondagi ta’lim tizimining asosiy turlariga oid sharxlar va ta’limni moliyalash. 6 O’zbekistonda ta’lim : talab va taklif mutanosibligi mavzusining ko’rgazmali elektron taqdimoti (Power Point Presentation).
O’quv mashg’ulotning maqsadi: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to’g’risida” gi qonunlarni amalga oshirish, talim tizimi oily o’quv yurti hamda maktab isloxotida belgilangan ulkan vazifalarni bajarish ta’lim tarbiya sifatini yaxshilash pedagogik jarayonni boshqarish va idora qilish, o’quvchilar jamoasi faoliyatini yo’lga qoyish va rahbarlik qilish, va jamoatchilikni tarbiya ishlariga jalb etish va ular bilan yaqin hamkorlik o’rnata olish.	
Pedagogik vazifalar: • O’quv mavzuning maqsadi va vazifalari, aytib o’tiladigan ma’lumotlarni chizma asosida	O’quv faoliyati natijalari: • O’quv mavzuning maqsadi va vazifalari, aytib o’tiladigan ma’lumotlarni chizma asosida tushuntirib beradi.

tushuntirib berish; • Yagona tizimni tashkil etadigan • ta'lim tizimini yoritib berish; • Ta'lim tizimiga tavsif berish; • Ta'lim tiziminining turlarini sharxlab berish; • Ta'lim tizimi bo'yicha modellar va xalqaro konvensiyani tushuntirish.	• Yagona tizimni tashkil etadigan ta'lim tizimini yoritib beradi. • Ta'lim tizimiga tavsif beradi. • Ta'lim tiziminining turlarini sharxlab beradi. • Ta'lim tizimi bo'yicha modellar va xalqaro konvensiyani tushuntiradi.
O'qitish usullar	Elektron ko'rgazmali ma'ruza
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanma, videoproyektor
O'qitish sharoiti	Ta'limga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baxolash	Og'zaki nazorat: savol-javob shakli

2.1.2 “ O'zbekistonda ta'lim : talab va taklif mutanosibligi ” mavzusidagi ma'ruzasi va amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.


Ishlash bosqichlari vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar

1-bosqich. Fan va mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi, rejalar ro'yxatini beradi va ularga qisqacha ta'rif beradi . 1.2. Mavzu, birinchi mashg'ulotning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytib beradi. 1.3. Talabalarning bilimlarini jonlantirish uchun savollar beradi va ushbu savollarga javob berish shartligini ta'kidlaydi.	Tinglashadi Tinglashadi savollar beriladi, o'ylashadi, muhokama qolishadi va savollarga javob beradilar
2-bosqich. Asosiy (55 daqiqa)	2.1. Ekranga jadvalni chiqaradi va ma'ruza tinhlash jarayonida uni to'ldirishni so'raydi. 2.2. Power Point Presentaion dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.	Tomosha qilishadi, yozishadi. Tinglashadi, yozishadi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi, ish natijalarini izchillikda izohlab beradi. 3.2. Esse yozish qoidalarini tushuntiradi. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: "Ta'lim bo'yicha modellar va xalqaro konvensiya ortasida qanday umumiylik va tafovutlar mavjud?" degan savolga esse yozish so'raladi (Javobingizni asoslang).	Savollar beradi. Mustaqil ishlash uchun esse mavzusini yozib.

2.1.3 “O‘zbekistonda ta‘lim : talab va taklif mutanosibligi” mavzusini o‘zlashtirishga qaratilgan jonlantiruvchi savollar :

1. Uzluksiz ta‘limning ijtimoiy taraqqiyotga ta‘sir darajasi qanday asosiy omilga bog‘liq bo‘ladi ?
2. Osiyo ta‘lim modeli modelining, Yevropa ta‘lim modelidan farqi nimada ?
3. Maktabgacha ta‘lim tizimining maqsadi ?
4. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim tizimida necha turdagi ta‘lim muassasasi tashkil qilingan ?
5. Umumiy o‘rta ta‘lim bilan Maktabgacha ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlari ?
6. Kasb-hunar kollejiga ta‘rif bering ?
7. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimi haqida ma‘lumot bering ?
8. Oliy ta‘lim nechta bosqich iborat ?
9. Oliy ta‘limning Bakalavriat yo‘nalishi necha yillik bazaviy ta‘lim ?
10. Oliy ta‘lim tizimi bitiruvchilarga bakalavriat dasturini tamomlagach, davlat attestatsiya natijalariga ko‘ra qanday daraja beriladi ?
11. Oliy ta‘lim muassasalari tarkibiga nimalarni kiritish mumkin ?
12. Uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish bosqichlari ?
13. Uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilishning birinchi bosqichi haqida ma‘lumot bering ?
14. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘rtasidagi farq nimalardan iborat ?
15. Ta‘lim tizimini rivojlantirish maqsadida qanday takliflar bera olasiz ?

2.1.4 . “ O‘zbekistonda ta‘lim : talab va taklif mutanosibligi ” mavzusini tuzilmaviy mantiqiy chizmasi.



2.1.5. “ O’zbekistonda ta’lim : talab va taklif mutanosibligi ” mavzusi bo’yicha amaliy mashg’uloti texnologik kartasi.

2.1.5 « O’zbekistonda ta’lim : talab va taklif mutanosibligi » mavzusi bo’yicha amaliy mashg’uloti texnologik kartasi.

Ishlash bosqichlari vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. O’quv masg’uloti mavzusi,maqsadi, muhokama uchun savollar,ko’zlanayotgan natijalar va mashg’ulotni olib borish xususiyatlarini ma’lum qiladi.Eng yuqori bal to’plagan guruh g’aliba qiladi. Guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi. 1.2.Talabalar bilimini jonlantirish uchun jalb qiluvchi savollar beriladi. 1. Ta’limning inson rivojlanishiga ta’siri haqida ma’lumot bering ? 2.O’zbekistondagi ta’lim tizimining asosiy turlarini asoslab bering ? 3. Maktabgacha ta’lim haqida nimalarni bilasiz ? 4. Kadrlar tayyorlash bo’yicha yangi milliy siyosatni shakllantirishning dastlabki bosqich qanday ?	Tinglaydilar Savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo’ladi. O’quv topshirig’ini aytadi.	O’quv topshiriqlari,baholash ko’rsatkichlari va

(65 daqiqa)	Ko'zlanayotgan qanday o'quv natijalariga ega bo'lishni aniqlaydi. Ish tartibi va reglamenti, baxolash mezonlari va ko'rsatkichlarini tushuntiradi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi. Kuzatuvchi sifatida guruh ishini nazorat qiladi, alohida ishlarni tashkil qilish bo'yicha aniq ko'rsatmalar beradi, ochiq savollar beradi: "Nima uchun shunday...?, Sizningcha eng yaxshisi qanday?" 2.3. Guruhlarga jadval savollarni bo'lib tashlaydilar, har bir guruhga birta savolga berishni taklif qiladi. Jadvalning 4ta savoli bo'yicha barcha guruhlar o'zlarinig javob variantlarini brishlarini so'raydi. O'quv natijalarini sharxlaydi, topshiriqni bajarish jarayonidagi qilingan topshiriqni bajarish jarayonidagi qilingan alohida xulosa, umumlashtirishlarga ahamiyat beradi va guruhlarini o'zaro bahilashlarini tashkillashtiradi.	mezonlari bilan tanishadilar. Guruh a'zolari jadval tuzadilar. O'quv topshirig'i bo'yicha guruhli natijalarni ifodalaydilar va taqdimot varaqlarini rasmiylashtiradilar. Taqdimotga tayyorlanadilar. Berilgan savol bo'yicha gurux faollari taqdimot qiladilar va boshqa guruhlar a'zolari javobni to'ldiradilar. O'zaro baholaydilar.
3-bosqich. Yakuniy (5 daqiqa)	3.1. Guruhlarning o'zaro baholashning yakunini chiqaradi, o'quv faoliyat natijalarini tahlil qiladi.	Tinglaydilar

Guruhlarda ishlash qoidasi

- Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
- Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
- Agar yordam kerak bo'lsa ,Albatta murojat qiling.
- Agar sizdan yordam so'rasha, albatta yordam bering.
- Guruhlar faoliyatining natijalarini baxolashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'imiz lozim:

- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

2.1.6.O'quv topshirig'i.

- Avval olingan bilimlarni qo'llab, jadvalni to'ldiring
- Savollar bo'yicha birga taqdimot qiling (1-3)
- Ta'lim tizimini isloh qilish.

Maktabgacha ta'lim	O'ziga xos xususiyatlari	Umumiy o'rta ta'lim
	1 Ta'lim tizimi tarkibiga nimalar kiradi ?	
	2 Bu ta'lim tizimining asosiy maqsadi nima ?	
	3. Qaysi sohaga ko'proq talab ?	
	4. Ta'lim boyicha qanday modellarni bilasiz ?(o'zingizni fikringiz)	

Ish tartibi va reglamenti

1. Guruhlarda ishlash – 20 daqiqa.
2. Taqdimot - 10 daqiqa.
3. Jamoaviy muhokama va o'zaro bahilash – 15 daqiqa.

O'quv faoliyatni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari.

Guruhlar	Savol yoritilishinig to'liqligi (5 bal)	Javoblarga boshqa guruhlarining fikr bildirishi (1,5 bal)	Bashorat varianti (1 bal)	Umumiy bal
1				
2				
3				


Ta'lim tizimini isloh qilish

Ta'lim	Islohotlarga bo'lgan davr		Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish sharoitida	
	11 yillik umumiy o'rta ta'lim		Majburiy umumiy o'rta ta'lim	
	10-11 sinf o'rta ta'limi		Boshlang'ich 1-4-sinflar	
	Boshlang'ich majburiy 1-4-sinflar	Bazaviy majburiy 5-9-sinflar	Umumiy o'rta 5-9-sinflar	
	Kasb-hunar ta'limi tizimi	O'rta maxsus ta'lim tizimi (texnikumlar, bilim yurtlari)	Majburiy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi	
	1) 9-sinf bazasidagi (PTU) (o'qish muddati 1-1,5 yil — ishchi kadrlar) — umumiy o'rta ma'lumot to'g'risidagi attestatsiz, tugatgandan so'ng mehnat bozoriga, umumiy o'rta ta'lim to'g'risida attestat beradigan 9 yillik ma'lumot bilan texnikum bo'limlariga o'qishga kirish mumkin.	Texnikumlar va ularning maktablar 9-11 sinflari bazasida bo'limlari	Akademik litseylar	Kasb-hunar kollejlari
	2) 9-sinf bazasidagi o'rta (o'qish muddati 3 yil — ishchi kadrlar — umumiy o'rta ma'lumot to'g'risida attestat, tugatgandan so'ng — mehnat bozoriga, texnikumlar va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish mumkin	O'qish muddati 3-4 yil — o'rta bo'g'in mutaxassislari, tugatgandan so'ng mehnat bozoriga, oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish mumkin	Umumiy o'rta maktabdan (9 yil) so'ng o'qish muddati 3 yil — kichik mutaxassis, tugatgandan so'ng mehnat bozoriga, oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishi mumkin	
Oliy ta'lim	Oliy o'quv yurtlari (o'qish muddati 4-6 yil) — oliy ma'lumotli mutaxassis		Oliy o'quv yurtlari: Bakalavriat kamida 4 yil, magistratura kamida 2	

Uzluksiz ta'lim milliy modelining tashkil etish hamda rivojlantirish yo'nalishi va chora-tadbirlari

Boshlang'ich holat – islohotlar boshlanishi 1997-yil	
Uzluksiz ta'lim milliy modelini amalga oshirish yo'nalishlari va choralari • Ta'lim tizimini isloh qilish , uni davlat va nodavlat ta'lim muassasalari asosida yagona o'quv ishlab chiqarish majmui sifatida bosqichma-bosqich rivojlantirish, raqobat muxitini shakllantirish. • Ta'lim tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog'lash. • Ta'lim tizimi muassasalarini yuqori malakali pedagog va muhandis-pedagog kadrlar bilan ta'minlash , pedagogik faoliyat nufuzi va ijtimoiy maqomini oshirish. • Mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalardan kelib chiqib, uzluksiz ta'lim tuzilmasi va mazmun mohiyatini qayta tashkil etish. • Ta'lim olayotganlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakl va uslublari hamda ma'rifiy ishlarni joriy qilish. • Ta'lim sifati, ta'lim muassasalari attestatsiyadan va ro'yxatdan o'tkazishni baxolashning xolis tizimini joriy etish. • Ta'limning talab etilgan darajasi va sifati va ta'lim tizimining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida faoliyat yuritishi, barqaror rivojlanishi hamda ustivorligi kafolatini ta'minlaydigan me'yoriy axborot bazasini tashkil etish. • Ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash. • Amaliyotga ta'lim tizimini moliyalashni takomillashtirish, byudjetdan tashqari, jumladan joriy investitsiyalarni jalb qilishning amaliy mexanizmlarini joriy qilish.	Belgilangan vazifaning yakuniy maqsadiga erishish- xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot , ilm-fan, texnika va texnologiyalar yutuqlari asosida uzluksiz ta'limning mukammal tizimini tashkil etish, barkamol avlodni shakllantirish.

Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish bosqichlari



Shunday qilib, yangi ta'lim tizimi mustaqil fikrlaydigan, har tomonlama rivojlangan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, madaniyat va kasbiy ko'nikmalarni o'zida mujassam etgan shaxsni shakllantirishni ta'minlashi lozim.

2.2 O'ZBEKISTONDAGI TA'LIM TIZIMINING ASOSIY TURLARIGA OID SHARXLAR VA TA'LIMNI MOLIYALASH

1. Maktabgacha ta'lim. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U sog'lom, rivojlangan barkamol bolani shakllantiradi, unda bilim olishga intilishni paydo qiladi, tizimli o'qishga tayyorlaydi. Olti-yetti yoshdagi bolalarni maktabgacha tayyorlash davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda oilada amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi — bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash, sog'lom, rivojlangan va ozod shaxsni shakllantirish, uning iste'dodini ochish, o'qishga, tizimli ta'limga qiziqishni tarbiyalashdan iborat. Maktabgacha ta'lim uni egallash shakli va uslubidan qat'iy nazar, quyidagi vazifalarni hal etadi:

- bolalarni maktabda o'qish uchun maqsadli va tizimli tayyorlash, ularning individual iste'dod va qobiliyatini rivojlantirish;
- bolalarni milliy va umumbashariy odob-axloq hamda madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, aqliy rivojlantirish;
- yuksak ma'naviyat va odob-axloq asoslarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash.

Maktab ta'limi maqsad va vazifalarini amalga oshirishda jamoat va xayriya tashkilotlari, mahallalar, xalqaro jamg'armalar ham faol ishtirok etmoqda.

2. Umumiy o'rta ta'lim. O'zbekistonda boshlang'ich (1-4-sinf) va o'rta (5-9-sinf) ta'limdan iborat 9 yillik majburiy bepul umumiy o'rta ta'lim joriy etilgan. Umumiy maktablarning 10-11 sinflaridagi ta'lim bosqichma-bosqich o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlaridagi ta'lim bilan almashtirilmoqda. Bu jarayon 2007/2008 o'quv yilida keskin kamaytirilib, 2009 yildan keyin to'liq ushbu tizimga o'tkaziladi.

Umumiy o'rta ta'limning maqsadi quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim, qobiliyat va umumiy madaniyatni shakllantirish;
- o'quvchilarni jamiyat hayotiga moslashtirish, ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish;
- barkamol rivojlangan shaxs, o'z vatanining fuqarosini shakllantirish;
- yoshlarda mustaqillik va demokratiya tamoyillariga sodiqlik hissini tarbiyalash.

Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limning mantiqiy davomi hisoblansada, sifat jihatidan o'qitishning boshqacha mazmun va uslubiyatiga ega. O'rta ta'lim o'quvchining shaxsi, qiziqishlari, ijtimoiy jihatdan o'z yo'lini o'zi belgilash qobiliyatini shakllantirishni ta'minlaydi. O'rta maktab o'quvchisi fanlar asoslari bo'yicha tizimli bilimga ega bo'ladi. O'qish jarayonida keng dunyoqarash, ijodiy fikrlash shakllantiriladi. Xalqning boy ma'naviy va madaniy merosi bilan tanishtirish orqali atrof-olamni asrab-avaylash ko'nikmasi singdiriladi. O'rta maktab o'quvchilarga maktab fanlarini mustaqil o'rganish uchun keng imkoniyat yaratadi. O'rta ta'lim mazmun-mohiyati tarkibiga majburiy va qo'shimcha tarkibiy qismlar kiritilgan.

Majburiy tarkibiy qism davlat ta'lim standartlari tomonidan belgilanadi va o'quvchilarni tayyorlashning yetarli hamda zarur darajasiga ega. Uning yutuqlari umumiy o'rta ta'limning ta'lim muassasalari tomonidan kafolatlanadi. Mazkur tarkibiy qism davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, shaxs manfaat hamda ehtiyojlari asosida belgilanadi.

Qo'shimcha tarkibiy qism o'quvchining ehtiyoj va qobiliyati, maktabning moddiy-texnikaviy va kadrlar bilan ta'minlanish darajasi, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish talablaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qo'shimcha o'quv vazifasi hajmi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan me'yorlarga muvofiq aniqlanadi.

Maktabda o'quv-tarbiya ishlari Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan Asosiy o'quv rejasi va umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'quv fanlari, umumta'lim dasturlari ro'yxati, o'qish davrining davomiyligi umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, Asosiy o'quv rejasiga qarab belgilanadi.

3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi. Uch yillik majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi hisoblanadi. Bu ta'lim O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 2009-yildan boshlab, majburiy xususiyatga ega bo'lsa-da, o'rta umumta'lim maktablari bitiruvchilari akademik listey va kasb-hunar kollejlari o'qish yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga egadir.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi faqat intellektual rivojlantirish, umum-ta'lim fanlarini chuqur o'rgatishdan iborat emas. Eng asosiysi — bitiruvchiga muayyan kasbni o'rgatish va umumta'lim fanlar bo'yicha bilim berish orqali uni mehnat bozorida ishlashga tayyorlash hisoblanadi. Ikki turdagi ta'lim muassasasi — akademik litsey va kasb-hunar kollejidano iborat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi kunduzgi o'qish shaklida amalga oshiriladi.

Akademik litsey — uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasi bo'lib, u davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilarning imkoniyat va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni intellektual rivojlantirish, chuqur, tabaqalashtirilgan va kasbga yo'naltirilgan holda o'qitishni ta'minlaydi. Akademik listeylarda o'quvchilar o'qish yo'nalishini ixtiyoriy tanlaydi: ijtimoiy, tabiiy-ilmiy, agrar va hokazo.

Akademik listeylarda kasbga chuqur va tabaqalashtirilgan o'qitish jarayoniga ilmiy-tadqiqot tashkilotlari ham jalb etilishi mumkin. Bu holatda ushbu tashkilotlar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishuv asosida akademik litseylarga homiylik qiladi.

Kasb-hunar kolleji — uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasidir. Kollej davlat ta'lim standartlariga muvofiq kasbiy qiziqishni chuqur rivojlantirish orqali o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini ta'minlaydi. Kollej bitiruvchilari tanlagan yo'lanishi bo'yicha bir yoki bir qancha mutaxassislikka ega bo'ladi.

Kollejda kasb-hunar va ta'lim dasturlari ikki yoqlama o'qitish tizimi asosida amalga oshiriladi. Ushbu holatda o'quv-ta'lim jarayoni va kasbiy tayyorgarlik tegishli ravishda kollejda hamda korxonada amalga oshiriladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariida umumta'lim hamda kasb-hunar dasturlari uchta kursda amalga oshiriladi. O'qish nihoyasiga yetgach, har bir kursda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi tekshiriladi va aniqlanadi.

- akademik listeylar uchun — ilm-fan yo'nalishi bo'yicha kasbiy o'qitish;
- kasb-hunar kollejlari uchun — mutaxassislik (mutaxassisliklar) bo'yicha tegishli malaka berish.

4. Oliy ta'lim. Bu ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, undan 12 yillik majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitirgach, foydalanish mumkin (2009- yilgacha o'rta maktab bitiruvchilari ham). Mamlakatda oliy ta'lim

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi qonunlariga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'limning maqsadi malakali, raqobatbardosh, oliy ma'lumotli mutaxassis talablariga javob beradigan, tanlagan sohasi mutaxassisligi bo'yicha ishlay oladigan, respublikani ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirishga qodir, yuksak ma'naviy, madaniy va axloqiy fazilatlarga ega kadrlarni tayyorlashni ta'minlash hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- Davlat ta'lim standartlariga muvofiq mulkchilik shakli va qaysi idoraga bo'ysinishidan qat'i nazar, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini amalga oshiradigan oliy ta'lim muassasalari;

- oliy ta'limni rivojlantirish uchun zarur tadqiqot ishlarini bajaradigan ilmiy-pedagogik muassasalar;

- ta'limni boshqarish davlat organlari, shuningdek, ularga qarashli bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Oliy ta'lim sohasida e'lon qilingan davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- o'qitish va tarbiyalashning insonparvar va demokratik xususiyati;

- universitet ta'limining ustuvorligi;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning uzluksizligi hamda izchilligi;

- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyati;

- ta'limdan davlat ta'lim standartlari doirasida umumiy foydalanish;

- o'qitish dasturini tanlashga yondashuvning bir xilligi va tabaqlashgani;

- iqtidor va iste'dodni rag'batlantirish;

- oliy ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

- oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishni birlashtirish. Talabalarni oliy o'quv yurtiga abituriyentlarning bilim darajasini test sinovlari va o'rnatilgan tartibda belgilanadigan qo'shimcha sinovlar natijalari bo'yicha aniqlash orqali qabul qilinadi.

Oliy ta'limda o'qish davlat grantlari va to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqich — bakalavriat va magistraturadan iborat.

Bakalavriat — tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha puxta va amaliy bilim beradigan 4 yillik bazaviy oliy ta'lim.

Bitiruvchilarga bakalavriat dasturini tamomlagach, davlat attestastiya natijalariga ko'ra tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha «bakalavr» darajasi va davlatning namunaviy nusxadagi diplom beriladi.

Magistratura — muayyan mutaxassislik bo'yicha puxta va amaliy bilim beradigan oliy ta'lim. Unga faqat bakalavriat darajasiga ega bo'lganlar tanlov asosida qabul qilinadi va ikki yil o'qiydi.

Bitiruvchilarga magistratura dasturini tamomlagach, davlat attestastiya natijalariga ko'ra tayyorgarlik yo'nalishining muayyan mutaxassisligi bo'yicha «magistr» darajasi va davlatning namunaviy nusxadagi diplom beriladi.

Davlatning namunaviy nusxadagi bakalavr va magistr diplomi ularning egalariga tayyorgarlik yo'nalishiga muvofiq kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki keyingi bosqichdagi ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish huquqini beradi.

Oliy ta'lim muassasalari. Oliy ta'lim muassasalari yuridik shaxslar hisoblanadi. Respublikada oliy ta'lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud:

universitet—keng ko'lamli ta'lim sohalari va tayyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha oliy hamda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

akademiya — aniq ta'lim sohalari va tayyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha oliy hamda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

institut — odatda bitta bilim sohasi doirasida aniq tayyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha oliy hamda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiradi.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga muvofiq tuziladi va o'quv rejalari, kalendar o'quv jadvallari hamda darslar jadvali tomonidan tartibga solinadi. O'quv mashg'ulotlarining quyidagi turlari belgilangan: ma'ruzalar, konsultastiya, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, mustaqil ish va amaliyot. Nazorat ishi, kurs ishi, yakuniy attestastiya ishi mashg'ulotlarni baholash turlariga kiradi.

Barcha turdagi auditoriya mashg'ulotlari uchun 40 daqiqalik dars belgilangan. Darslar orasidagi tanaffus 10 daqiqani tashkil etadi. Oliy o'quv yurtlarida o'quv yili odatda ikki semestrga bo'linadi. Ularning har biri talabalarning o'zlashtirishini sarhisob

qilish (reyting ko'rsatkichlari) bilan yakunlanadi. Talabalarning o'zlashtirishi reyting ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Fanlarni yaxshi o'zlashtirayotgan talabalarni kursdan kursga o'tkazish fakultet dekanining tavsiyasiga ko'ra ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Shartli o'tkazishga ruxsat etilmaydi. Uzrli sabablarga ko'ra o'quv rejasi talablarini bajarmagan talabalarga o'quv yili boshlangunga qadar akademik qarzni uzish imkoniyati yoki akademik ta'til beriladi. Davlat ta'lim standartlariga muvofiq belgilangan ta'lim dasturlarini vaqtida o'zlashtira olmagan talabalar oliy ta'lim muassasasidan haydaladi. Oliy o'quv yurtlarining faqat kunduzgi bo'limlaridagi oliy ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradigan mutaxassisliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'qishni tugatib, diplom olgandan keyin o'qishni magistratura va doktoranturada davom ettirish mumkin bo'lgan rivojlangan xorijiy mamlakatlardan farqli o'laroq, O'zbekistonda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim aspirantura va doktoranturani o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va modernizatsiyalash, ularni zamonaviy o'quv va ilmiy-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarini maqbullashtirish, ta'lim standartlarini takomillashtirish hisobiga ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik texnologiyalar o'qitish shakllarini joriy etish, o'qituvchi kadrlar mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish asosida iqtisodiyot soha va tarmoqlarida talab qilinadigan oliy ma'lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-sentabrdagi F-3501 sonli farmoyishi ham tashkil etilgan.

**2010 yilda dunyoning ayrim mamlakatlarida
ta'lim uchun davlat xarajatlari (foiz)**

	YaIM ga nisbatan	Barcha davlat xarajatlariga nisbatan
O'zbekiston	12	52,2
Marokash	6,3	32,8
Efiopiya	6,1	25,4
Belarus	5,8	17,0
JAR	5,4	18,1
Kolumbiya	4,9	13,7
Eron	4,8	17,7
Gonkong (Xitoy)	4,7	23,3
Qirg'iziston	4,6	23,0
Ukraina	4,6	20,3
Tailand	4,2	27,5
Panama	3,9	9,9
Tojikiston	2,8	16,9
Livan	2,6	12,7

Manba: Ta'lim to'g'risida butunjahon ma'ruzasi 2010-yil

Ta'lim sektorini davlat byudjetidan moliyalash uch darajada amalga oshirilmoqda: respublika (markaziy), viloyat va tuman byudjetidan. Oliy ta'lim, ta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlari huzuridagi akademik listeylar, shuningdek, xalq ta'limi xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha hududiy institutlar respublika byudjetidan moliyalanmoqda. Oliy o'quv yurtlari huzuridagi kasb-hunar kollejlari va akademik listeylar viloyatlar byudjetidan moliyalanmoqda. Tuman hokimliklari asosan maktabgacha ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan va umum ta'lim maktablarning joriy xarajatlarini moliyalamoqda. Ayni paytda kapital investitsiyalar uchun xarajatlarning katta qismi viloyatlar byudjetidan qoplanmoqda.

Biz yuqorida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar aholi bilim darajasi va sifatiga mutlaqo yangi talablarni qo'yayotgani ta'kidlab o'tildik. Bugun iqtisodiyotdagi tarkibiy tub o'zgarishlar mehnat bozoriga nafaqat yaxshi bilimga ega va malakali kadrlar, balki zamonaviy sanoat ishlab chiqarishida ishlash uchun tayyorlangan odamlar kerakligini hayotningo'zi taqozo etmoqda..

Biroq yaqin yillar ichida O'zbekiston «rivojlanish ketidan» quvayotgan mamlakat sifatida emas, balki innovatsiya, ilmiy va texnika yutuqlari sohasida yuqori darajali qo'shimcha qiymatni yaratish qobiliyatiga ega mamlakat sifatida rivojlanishi uchun shuningo'zi kifoya qilmaydi.

“Iqtisod fanlari” bo'lishga da'vogarlik qilayotgan iqtisodiyotning ta'lim tizimiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagicha tuzilishi mumkin: ta'lim tizimi mamlakatni:

- a) innovatsiya turidagi ilmiy-texnika kashfiyotlarini yuzaga keltira oladigan;
- b) yangiliklarni yanada takomillashtirish, bilish va joriy etishga qodir bilimi yuqori va muntazam qayta ishlab chiqara oladigan muhandis-texnik va ilmiy xodimlar bilan;
- v) zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqarishni rivojlantirishni boshqarishga qodir yuqori malakali menejerlar bilan;
- g) zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida ishlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyatiga ega yuqori malakali ishchilar bilan ta'minlashi zarur.

Oliy ta'lim faoliyati natijalariga alohida haq to'lash, haq to'lashni pedagogik faoliyat bilan bog'lamaslik. Oliy ta'lim ishiga talabalar, magistrantlar, aspirantlar va doktorantlarni keng jalb qilish. Oliy ta'lim faoliyati natijalaridan olinadigan daromadni barcha soliq turlaridan ozod etish. Shu maqsadda xorijiy tillarga, birinchi navbatda, asosiy o'quv va ilmiy-texnika adabiyoti chop etiladigan ingliz va rus tillariga o'qitishni kengaytirish hamda yaxshilash. Kutubxona markazlarining eng ilg'or o'quv va ilmiy-texnika adabiyotini, jumladan, «Internet» tarmog'ida mavjud pulli resurslarni xarid qilishini ta'minlash.

Butunjahon banki maktabda beriladigan ta'lim sifati yaxshilanishini qo'llab-quvvatlaydi. 2011 yil 29 yanvar kuni O'zbekiston Hukumati va Butunjahon banki O'zbekistonda maktabda beriladigan ta'lim sifatini rivojlantirish loyihasining birinchi bosqichini moliyalashtirish to'g'risida bitim imzoladi. Buning uchun Taraqqiyot Xalqaro Uyushmasi 15 mln. AQSh dollari miqdorida mablag' ajratadi. Mazkur loyiha mamlakat maktablarida berildigan ta'lim sifatini hamda ta'lim tizimidagi xarajatlar samaradorligini oshirish uchun safarbar etiladi. “Loyiha mamlakatning boshlang'ich va o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini 2015 yilga qadar yaxshilashga qaratilgan Ming yillik taraqqiyot maqsadlariga erishishida

sezilarli hissa qo'shishi kutilmoqda", - deydi Butunjahon bankining

O'zbekistondagi rahbari Lu Brefor.

Loyiha quyidagi to'rt asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- * Maktab va maktab muassasalarini ko'rgazmali qurollar, o'quv materiallari va boshqa resurslar bilan ta'minlash;
- * O'qituvchilar va o'rta maktab hamda maktab muassasalari rahbarlari malakasini oshirish;
- * Maktablarning vasiylik kengashlarini faollashtirish;
- * Maktabda beriladigan ta'limni boshqarish va moliyalashtirish tizimini yaxshilash.

Ma'lumot manbai : [Uzreport](#)

Respublikamizda yalpi ichki mahsulotning 12% ta'lim sohasiga yo'naltiriladi, chunki ta'lim davlat rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining navbatdagi bosqichida ta'lim mazmuni va sifatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu jarayon zamon talabi darajasidagi darslik va o'quv adabiyotlari yaratish bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Respublika ta'lim markazida tashkil etilgan seminarda ana shu mavzu o'qituvchilar, uslubchilar, darslik va o'quv adabiyotlari mutasaddilarining diqqat-e'tiborida bo'ldi. Ta'lim tizimining asosini yuqori sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab sanalsada, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'limda axborot texnologiyalarini tub ma'noda joriy etishga xizmat qiladi.

Ma'lumot manbai : [UZA.UZ](#)

2.3 “O’ZBEKISTONDA TA’LIM : TALAB VA TAKLIF
MUTANOSIBLIGI ”MAVZUSINING KO’RGAZMALI ELEKTRON
TAQDIMOTI (**Power Point Presentation**).

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI YUZASIDAN
ELEKTRON KO’RGAZMALI TAQDIMOTI**

**MAVZU : “O’ZBEKISTONDA TA’LIM:
TALAB VA TAKLIF MUTANOSIBLIGI ”**

**Taqdimotchi: 5140900 – “Kasbiy ta’lim” (ijtimoiy
– iqtisodiy soha) yo`nalishi kunduzgi bo’lim 4 kurs
“E” guruh talabasi Narzullayev Akmaljon**

MARUZA REJASI:

- 1. Ta'lim va jamiyat taraqqiyoti.**
- 2 .O'zbekistondagi ta'lim tizimining asosiy turlariga oid sharxlar.**
- 3.Ta'lim bo'yicha modellar.**

ADABIYOTLAR :

- Karimov.I.A “ Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish ” T. O`zbekiston, 2010yil. 80-bet
- Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 29 yanvar.
- Karimov.I.A “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” asari.2008-yil
- “Bozor,Pul, Kredit” jurnali 2011 -yil 7,8,9,10-sonlari.
- Inson taraqqiyoti to`g`risida ma`ruzalar mavzulari 2011 -yil 22-25betlar
- “ Umumiy pedagogika ”A.Minovarovning tahriri ostida 52-bet
- Internet materiallari.
- www.ziynet.uz

”

1.TA'LIM VA JAMIYAT TARAQQIYOTI.

Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qisimlaridan hisoblanadi, jamiyatning muhim muammolarini hal etishda ham u asosiy o'rin egallaydi. Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va gumanitar muammolarni bartaraf etishga misilsiz ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limga nisbatan inson hayotining ajralmas bir bo'lagi va unga o'zining jamiyat hayotida muhim o'rin tutishini anglab yetishida muhim vosita sifatida qarash asrlar davomida o'zgarib bordi. Biroq ta'lining u borada tatgan o'rni ko'pincha ma'naviy va intellektual nuqtai nazardan korib chiqilgan.

Ta'lim olish insonning asosiy huquqi sifatida inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, insonning barcha huquq va erkinliklarini hurmat qilishni mustahkamlash, shuningdek barcha xalqlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik va do'stlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Inson rivojlanishining asosiy maqsadi odamlarning farovonligini ta'minlash, sog'lom va bunyodkorlik hayotidan yetarlicha bahra olish imkoniyatini beradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy madaniy hamda ekologik muhitini yaratishdan iborat.


Insoniyat sivilizatsiyasi davomida ta'lim va ilm-fanni yuqori darajada rivojlantirish ijtimoiy, texnik hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim belgilaridan hisoblangan.

Shu sababli ta'limni rivojlantirish, undan har bir fuqaroning foydalanishini kengaytirish ishsizlikka qarshi kurash bo'yicha davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylanishi shart.

Dunyoning qator mamlakatlarida 16-25 yoshli aholining savodxonlik darajasi,
2011 yil (%)

Erkaklar

Xotin -qizlar



Xitoy	Indoneziya	Quvayt	Keniya	Hindiston	Marokash	Gaiti	Efiopiya	Bangladesh	Nigeriya
-------	------------	--------	--------	-----------	----------	-------	----------	------------	----------

Tarixdan ma'lumki, ta'limning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir darajasi 3 ta asosiy omilga bog'liq.

1-omil

Bu hukumatning ta'lim va ilm fanni rivojlantirishiga qaratilgan manfaatdorligi, siyosiy irodasi va qobiliyati. Hukumatning ta'limni rivojlantirishdan manfaatdorligi, aholisi turmush darajasini oshirishga intilayotgan hokimyatdagini namoyon bo'ladi. Islohotlarni amalga oshirish va keng ko'lamli ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun manfaatdor bo'lishdan tashqari siyosiy irodaga ham ega bo'lishi dardkor.

2-omil

Bu ta'limdan aholi keng qatlamining foydalanish darajasi. Qadimgi sivilizatsiya mamlakatlari, shuningdek uyg'onish davri va ilk o'rta asrda Yevropa hamda Markaziy Osiyo davlatlarida yangi era boshlanguncha ilm-fan va madaniyatning yuksalishi o'zining muayyan cheklanishga ega bo'lgan. Buning sababi jamiyatning tor doiradagi, elita qismi yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgani tufayli tarqqiyot ham unga asoslangandir. Natijada o'sha davrning buyuk odamlarining kashfiyotlariga ta'lab bo'lmadi.

3-omil

Bu ta'lim sifati va uni inson faoliyati natijalariga aylantirish qobiliyatidir. Aholi savodxonligining yuqori darajasi aholi bilim darajasining muhim mezonini hisoblanadi.

2 .O'ZBEKISTONDAGI TA'LIM TIZIMINING ASOSIY TURLARIGA OID SHARXLAR.

*O'zbekistonda 2 ta vazirlik—Xalq ta'limi
vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
ta'lim muassasalari faoliyatiga bevosita
rahbarlik qiladi.*

**XALQ
TA'LIMI
VAZIRLIGI**



Xalq ta'limi vazirligi
maktabgacha, maktabdan tashqari
ta'lim muassasalari va
umumta'lim maktablari faoliyati
uchun javob beradi.

**Oli va o'rta
maxsus
ta'lim
vazirligi**



Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi o'rta maxsus, kasb-hunar
ta'limi, buning uchun uning
tarkibida maxsus Markaz(O'rta
maxsus, kasb-hunar ta'lim
markazi) tashkil etilgan,
shuningdek oliy o'quv yurtlari
faoliyati uchun javob beradi.

TA'LIM TIZIMINING ASOSIY TURLARIGA OID SHARHLAR

1

- **Maktabgacha ta'lim**

2

- **Umumiy o'rta ta'lim**

3

- **O'rta Maxsus, Kasb-xunar Ta'limi.**

4

- **Oliy ta'lim**

- **1. Maktabgacha ta'lim-** uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ni hisoblanadi. U sog'lom rivojlangan barkamol bolani shakllantiradi, unda bilim olishga intilishni paydo qiladi, tizimli o'qitishga tayyorlaydi. Olti-yetti yoshdagi bolalarni maktabgacha tayyorlash davlat va nodavlat maktabgachata'lim muassasalari hamda oilada amalga oshiriladi.
- **2. Umumiy o'rta ta'lim** –O'zbekistonda boshlang'ich (1-4-sinf) va o'rta (5-9-sinf) ta'limdan iborat 9 yillik majburiy bepul umumiy ta'lim joriy etilgan. Umumiy maktablarning 10-11 sinflardagi ta'lim bosqichma-bosqich o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlaridagi ta'lim bilan almashtirildi. Bu jarayon 2007/2008 o'quv yilida keskin kamaytirilib 2009 yildan keyin to'liq ushbu tizimga o'tkazildi.

- **3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi-** 3 yillik majburiy kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi hisoblanadi. Bu ta'lim O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 2009-yildan boshlab, majburuy xususiyatga ega bo'lsada, o'rta umumta'lim maktab o'quvchilari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'qish yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga egadir.

Ikki turdagi ta'lim muassasasi — akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridan iborat hamda ta'lim kunduzgi o'qish shaklida olib boriladi.

AKADEMIK LITSEY— uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bo'lib, u davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilarning imkoniyat va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni intellektual rivijlantirish chuqur, tabaqalashtirilgan va kasbga yo'naltirilgan holda o'qitishni ta'minlaydi.



KASB-HUNAR KOLLEJI— uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi. Kollej davlat ta'lim standartlariga muvofiq kasbiy qiziqishni chuqur rivojlantirish orqali o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini ta'minlaydi. Kollej bitiruvchilari tanlangan yo'nalishi bo'yicha bir yoki bir qancha mutaxassislikka ega bo'ladilar.

4. Oliy Ta'lim - uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, undan 12 yillik majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitirgach, foydalanish mumkin (2009- yilgacha o'rta maktab bitiruvchilari ham). Mamlakatda oliy ta'lim O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» gi qonunlariga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'limning maqsadi malakali, raqobatbardosh, oliy ma'lumotli mutaxassis talablariga javob beradigan, tanlagan sohasi mutaxassisligi bo'yicha ishlay oladigan, respublikani ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirishga qodir, yuksak ma'naviy, madaniy va axloqiy fazilatlarga ega kadrlarni tayyorlashni ta'minlash hisoblanadi.



Bakalavriat — tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha puxta va amaliy bilim beradigan 4 yillik bazaviy oliy ta'lim. Bitiruvchilarga bakalavriat dasturini tamomlagach, davlat attestasiya natijalariga ko'ra tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha «bakalavr» darajasi va davlatning namunaviy nusxadagi diplom beriladi.

Magistratura — muayyan mutaxassislik bo'yicha puxta va amaliy bilim beradigan oliy ta'lim. Unga faqat bakalavriat darajasiga ega bo'lganlar tanlov asosida qabul qilinadi va ikki yil o'qiydi. Bitiruvchilarga magistratura dasturini tamomlagach, davlat attestasiya natijalariga ko'ra tayyorgarlik yo'nalishining muayyan mutaxassisligi bo'yicha «magistr» darajasi va davlatning namunaviy nusxadagi diplom beriladi.

3.TA'LIM BO'YICHA MODELLAR

Biz hozir rivojlangan va jadal sur'atda rivojlanayotgan mamlakatlar yani **Yevropa**, **Amerika** va **Osiyo** modellari bilan tanishib chiqamiz.

Yevropa ta'lim modeli

- **Yevropa ta'lim modeli** boshlang'ich maktabdan boshlab, o'quvchilarga yuqori talablarni qo'yish va ularga puxta bilim, jumladan tabiiy va muhandislik fanlari sohasida chuqur bilim berishga qaratilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi ham mavjud. Boshlang'ich va o'rta maktabda o'qish jami 10-12 yil davom etadi va umumiy hisoblanadi. Keyingi bosqich kasb-hunar, oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limdir. Bu modelda barcha darajada bilim olish markazlashtirilgan bo'lib, asosan davlat hisobidan bepul o'qitiladi. Ushbu modelda o'quvchilar bilimini boshlang'ich maktabdan boshlab baholash mezonlari yuqori hisoblanadi va o'quvchilar ushbu mezonlar asosida sinfdan sinfga ko'chiriladi.

Amerika ta'lim modeli

Yevropada universitetlar avtonomiyasi chuqur tarixiy ildizga ega bo'lsa-da, **Amerika**dagiga qaraganda ularning mustaqilligi nisbatan kamroq. O'quv yurtlarini boshqarishda akademik doiralarning roli katta, **Amerika**da esa bu vazifa ko'proq homiylik kengashlari zimmasiga yuklangan. **Amerika** tizimida davlat va xususiy maktablar, eng yaxshi va o'rtacha universitetlarda ta'lim sifati keskin farq qiladi. Boshlang'ich maktablarda o'quvchilarning bilim darajasiga nisbatan soddalashtirilgan talablar ularning bilim olishiga qarab ortib boradi. Boshlang'ich maktablarda ko'proq turli ijtimoiy fanlar o'qitilsa, o'rta maktablarda o'qishni ixtisoslashtirish uchun keng imkoniyat yaratilgan.

Osiyo ta'lim modeli

Osiyo ta'lim modeli ta'limni moliyalashda davlatdan tashqari xususiy biznes ham muhim rol o'ynashi bilan ajralib turadi. Umuman olganda ta'limni moliyalashda maxalliy manbalar milliy manbalarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi. Boshlang'ich va o'rta ta'lim asosan bepul, oliy ta'lim esa pullidir. Bunda talabalarga grantlar va kreditlar xisobidan ta'lim xizmatlari uchun pul to'lash bo'yicha yordam beradigan ko'p tarmoqli tizim mavjud. **Osiyo ta'lim modeliga** Yevropa va Amerika modelidan farqli o'laroq quyidagilar xosdir:

- boshlang'ich maktabning katta ahamiyatga ega ekanligi (ushbu aksariyat mamlakatlar, jumladan Yaponiya va Janubiy Koreyada boshlang'ich maktabda o'qish 4 yil emas, balki 6 yil davom etadi);
- maktab ta'limi dasturlarida o'quvchilarda uyg'unlik hissi, yuksak odob-axloq qoidalarini shakllantirishni ta'minlaydigan ma'naviy-axloqiy fanlarga alohida o'rin berilgani (musiqqa, tasviriy va amaliy san'at, etika, estetika);
- o'quvchilarga faqat akademik bilim berish emas, balki ularda ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilgani (Singapurda boshlang'ich maktab bitiruvchilari ega bo'lishi lozim bo'lgan elita afzalliklardan biri «fikrlash va o'z fikrini ifoda etish» va «atrofdagi narsalarga qiziqish bildirish» qobiliyati xisoblanadi);

Xullas ta'lim tizimi sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi.

Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri **bilim** olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi. Ta'lim olish insonning asosiy huquqi sifatida inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, insonning barcha huquq va erkinliklarini hurmat qilishni mustahkamlash, shuningdek barcha xalqlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik va do'stlikni mustahkamlashga yordam berishga qaratilgandir.

Millatning ijtimoiy jipslashuvi va uyg'unlashuviga xizmat qiladigan ta'lim –tarbiya oiladan boshlanadi. Oila har bir bola uchun birinchi maktab, asosiy ta'lim-tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Bolalarning oilada ta'lim-tarbiya olishi ularning kelajakda rivojlanishi uchun nihoyatda muhimdir.

Xulosa

Ushbu bitiruv malakaviy ishi natijalariga asoslanib, quydagi **xulosalarga** kelindi.

1. Ta'limga nisbatan inson hayotining ajralmas bir bo'lagi va unga o'zining jamiyat hayotida muhim o'rin tutishini anglab yetishida muhim vosita sifatida qarash asrlar davomida, o'zgarib bordi. Talim tizimi sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutstiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.

2. O'z xalqining moddiy, aqliy va ma'naviy boyligini oshirishga intilayotgan har qanday davlat o'z mamlakati milliy modelida ushbu vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini joriy qiladi. Yevropa modeli doirasida ingliz, fransuz va nemis ta'lim modeli, shuningdek, Sharqiy Yevropa mamlakatlari ta'lim modeli alohida ajralib turadi.

Yevropa ta'lim modeli boshlang'ich maktabdan boshlab, o'quvchilarga yuqori talablarni qo'yish va ularga puxta bilim, jumladan tabiiy va muhandislik fanlari sohasida chuqur bilim berishga qaratilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi ham mavjud. Boshlang'ich va o'rta maktabda o'qish jami 10-12 yil davom etadi va umumiy hisoblanadi. Keyingi bosqich kasb-hunar, oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limdir.

Osiyo ta'lim modeli ta'limni moliyalashda davlatdan tashqari xususiy biznes ham muhim rol o'ynashi bilan ajralib turadi.

Amerika tizimida davlat va xususiy maktablar, eng yaxshi va o'rtacha universitetlarda ta'lim sifati keskin farq qiladi. Boshlang'ich maktablarda o'quvchilarning bilim darajasiga nisbatan soddalashtirilgan talablar ularning bilim olishiga qarab ortib boradi. Boshlang'ich maktablarda ko'proq turli ijtimoiy fanlar o'qitilsa, o'rta maktablarda o'qishni ixtisoslashtirish uchun keng imkoniyat yaratilgan.

3. O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlari. **Maktabgacha ta'limning maqsadi** — bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash, sog'lom, rivojlangan va ozod

shaxsni shakllantirish, uning iste'dodini ochish, o'qishga, tizimli ta'limga qiziqishni tarbiyalashdan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi faqat intellektual rivojlantirish, umum-ta'lim fanlarini chuqur o'rgatishdan iborat emas. Eng asosiysi — bitiruvchiga muayyan kasbni o'rgatish va umumta'lim fanlar bo'yicha bilim berish orqali uni mehnat bozorida ishlashga tayyorlash hisoblanadi.

Oliy ta'limning maqsadi malakali, raqobatbardosh, oliy ma'lumotli mutaxassis talablariga javob beradigan, tanlagan sohasi mutaxassisligi bo'yicha ishlay oladigan, respublikani ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirishga qodir, yuksak ma'naviy, madaniy va axloqiy fazilatlarga ega kadrlarni tayyorlashni ta'minlash hisoblanadi.

4. O'zbekiston uchun istiqbolli, davlat talablariga mos keladigan ta'lim tizimini tashkil etish porloq kelajakni yaratish borasidagi yagona yo'ldir. Mamlakatda ulkan ishlar amalga oshirildi. Sirasini aytganda, o'tish davrini boshdan kechirayotgan hech bir mamlakat O'zbekistonda mamlakat Prezidenti tashabbusi bilan ta'lim tizimini isloh qilish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ketganchalik ko'p mablag' ajratmagan bo'lsa kerak.

5. Ta'limning roli faqat daromadlar darajasini oshishida emas, balki insonning imkoniyatlarining kengayishi, ne'matlarning unga yetishi, uning hayotini ancha qiziqarli, mazmunli va baxtli qilishda ham namoyon bo'ladi. Ta'lim inson sog'ligini mustahkamlash va faol uzoq umrli hayot kechirish uchun zaruriy ne'mat sanaladi. Inson ma'lumoti, ta'lim olganligi sog'lom va sifatli nasl-avlodni tarbiyalashda, yaxshi atrof-muhitni saqlash, asrashda, ham yordam beradi.

6. Biroq, hali oldindan qilinadigan ishlar ko'p. O'zbekiston ta'limni rivojlantirish borasida qo'lga kiritgan yutuqlar va duch keladigan qiyinchiliklar, yangidan-yangi vazifalar tahliliga bag'ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishi ham kelajakda ta'limni rivojlantirish ishiga o'ziga xos hissa qo'shadi, degan umiddamiz.

Bitiruv malakaviy ishi natijasida quydagi tavsiyalarni beramiz.

Birinchidan, umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish maqsadida maktablarga malakali pedagoglarni jalb qilish va ta'lim jarayonida faol ishtirok etayotgan o'qituvchilarni qo'shishimcha rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish lozim.

Ikkinchidan, umum o'rta ta'lim tizimida ham darslarda elektron taqdimot slaydlar orqali mavzularni tushuntirishni yo'lga qo'yish va xorijiy tillarga, birinchi navbatda, asosiy o'quv va ilmiy-texnika adabiyoti chop etiladigan ingliz va rus tillariga o'qitishni kengaytirish hamda yaxshilash. Kutubxona markazlarining eng ilg'or o'quv va ilmiy-texnika adabiyotlari bilan ta'minlash.

Uchinchidan, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarning tadbirkorlik qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularga o'z faoliyatlarini boshlash maqsadida banklar tomonidan imtiyozli "mikrokreditlar" ajratishni yo'lga qo'yish.

To'rtinchidan, O'zbekistonning uzluksiz ta'lim modelining tarkibiy qismi sifatidagi kasb-hunar ta'limi sifatini yanada yaxshilash va kasb-hunar kollejlari elektron darsliklardan chuqurroq foydalanish hamda professor o'qituvchilarni jalb qilishni yo'lga qo'yish.

Beshinchidan, kasb-hunar kollejlari kam taminlangan oila bitiruvchilarini ish bilan bandligini ta'minlashni joriy qilish.

Oltinchidan, ta'lim tizimidagi o'quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratishga qo'yiladigan sifat talablarini kuchaytirish va o'quv adabiyot mualliflarini rag'batlantirishni yo'lga qo'yish .

Yettinchidan "Dotsent" va "professor" ilmiy unvonlarini berish tizimni takomillashtirish, mazkur tizimning oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining muntazam ravishda o'z malaka va pedagogik mahoratini oshirishga rag'batlantirishdagi rolini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **O'zbekistonda ta'lim tizimi faoliyatini ta'minlaydigan asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar**
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonun 6-modda 2004-yil Istiqlol nashriyoti
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi qarori 2005-yil
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 fevraldagi "Akademik listeylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida"gi 77- qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 204-qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 4 oktabrdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 16-oktabrdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun yangi avlod darsliklari va o'quv adabiyotini yaratish to'g'risida"gi qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tuzilmasini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 27 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 27 iyuldagi "Umumta'lim maktablari bitiruvchilarining akademik listeylar va kasb-hunar kollejlarida o'qishini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 16 fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori
- 14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 17 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2007-2011 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
- 15.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 31 martdagi "Umumta'lim maktablarini darsliklar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori
- 16.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2007-2012 yillarda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv uslubiy qo'llanmalarni chop etish dasturi to'g'risida"gi qarori
- 17.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 31 maydagi "Islom taraqqiyot banki ishtirokida O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarini qurish va jihozlash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 104-qarori.
- 18.Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi". T: O'zbekiston, 2011.
- 19.Prezident Islom Karimovning "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. 2012 yil 17-fevral.
- 20.Karimov I.A." Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari".T.:O'zbekiston, 2009.
- 21.Karimov.I.A " Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish " T. O`zbekiston, 2010yil. 80-bet
- 22."Mamlakatimizni moderinizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimizdir". Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi Xalq so'zi, 2010 yil 29 yanvar.

23. Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruzalar mavzulari 2010-yil

24. Iqtisodiy o'sish va inson taraqqiyoti . 2010yil 42-b
25. Bozor iqtisodiyotga o'tish davrida davlatning demokratik, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o'tkazishdagi roli. 2010yil 23-b
26. Inson taraqqiyotini kichik va o'rta biznesni kengaytirish va rivojlantirish orqali kuchaytirish. 2010yil 122-b
27. O'zbekistonning yangi ming yillikdagi asosiy maqsadi. 2010yil 73-b
28. "Xalq so'zi" gazetasi 2011yil aprel, may sonlari. 1-3 bet
29. "Bozor, Pul, Kredit " jurnali 2011-yil soni 42- bet
30. Pedagogik mahorat jurnali 2008-yil soni 40-bet
31. Nuritdinov.Sh, Ochilov.T "Pedagog xodimlar malakasini oshirish istiqbollari"
Toshkent 2004-yil .
32. Qosimova D.S "Loyiha asosida o'qitish texnologiyasi" 2007-yil 44-58 bet
33. Rajabov F. "Iqtisodiy ta'lim - tarbiya o'qitish samaradorligini oshirish. Xalq ta'limi.
2006 yil 1-son., 92-93 betlar.
34. Umarova X. "Iqtisodiy bilim va tushunchalarni o'rgatishga yo'naltirilgan o'quv materiallari". Xalq ta'limi. 2005 yil 7-son., 84-89 betlar.
35. Zaynitdinov.X.N, Rasulov.A.G "Pedagog xodimlar malakasini oshirish istiqbollari : yangi metodologiya va texnologiyalar" 2004-yil Ilmiy-metodik konfrensiya materiallari.
- Internet materiallari.** (Ta'limga oid axborot tarmoqlari)
36. www.ziyonet.uz
37. www.perseus.uz
38. www.RSL.ru
39. www.bpk.uz
40. www.bilim.uz

